

Qotil Malika

1-fasl Mualliflar:Rameo_11;Frost_1_1;

Odamlar,dunyodagi eng vaxshiy
jonzotlar.Negaligini bilasizlarmiz?Xayvonlardan
yagona farqimiz bu
ongimiz,tafakkurimizdir.Lekin shunday odamlar
borki,xayvondan battar ishlarni
qiladi.Masalan,olaylik bolalar.Xayvonlar
bolalariga juda mehribon bo'lishadi.Ularni
asrab avaylashadi.Besh qo'l baravar emas
deyishingiz mumkin.Ammo yuqoridagi kabi
odamlar xam ko'payib borayapti.Mana yana
shunday xolat.Qorong'u ko'cha,sharros
yomg'ir.Amerikaning Illinoys shtati,Chikago
shaxri.Ko'chada deyarli xech kim yo'q.Bola
ko'tarib ketayotgan ayoldan boshqa.Bo'yi
o'rta,qora paltoga o'ranib olgan,qo'lida bola
ko'tarib olgan ayol to'xtamasdan yugurib
borardi.Uning ko'rinishidan boy oiladanligi aniq
deb o'ylardi ko'rgan odam.Bolalar uyining
oldiga borib biroz bolasiga qarab turdi.Moviy
ko'z,sariq soch bu chaqaloq endi 5 oylik

edi. Ayolni ko'zlaridan yosh tomchilay boshladi. Qizaloq qo'lini ko'tarib oyisining barmoqlarini ushlab oldi. Shunday jilmayardiki, buni so'z bilan ifodalab bo'lmaydi.

-Meni....meni kechir qizim-deb boshini egib yig'lardi-Bir kun kelib barchasini tushunib olasan, sen shu yerda qolishing, xayoting uchun foydali-derdi uni ostonaga qo'yarkan-Men xudbin oyingni kechir, sen shu qiyoafada barchasini boshidan boshlashing kerak-deb eshikni taqillatib yugurib ketdi. Ko'chada hech kim yo'q. Xozirgina onasini yo'qotgan qizaloq yig'lay boshladi. Bolalar, odamlar o'z bolalarini nima uchun boqishadi? Albatta, kelajakda ularga suyanish uchun. Qizlarini esa baxtini ko'rish uchun. Ammo shunday xolatlar bo'ladiki, o'sha paytda siz o'z yaqinlaringizdan ayrilishni boshlaysiz. Bunday paytda esa yoshingiz bir joyga borib qolgan bo'ladi. Ammo xikoyamiz qaxramoni o'z ota-onasidan ancha erta ayrildi. Aynan shu kundan boshlab esa uning bolaligi yakun topdi. eshik ochilib bir qiz va

uning yonida tarbiyachi ayol ko'rindi. Qizning Yoshi 4 yoshlar edi. Qora soch, moviy ko'z qizaloq edi.. Ayol esa 35 yoshlar chamasida. Uzun bo'y, qora soch va yuzi cho'ziqroq edi.

-Eh odamlar-dedi ayol qizni qo'liga olib-xayron qolasan, kimlardir ularga yetisha olishmaydi-deb o'z taqdiriga achindi. Ammo ular o'z bolalarini tashlab ketishadi.

-Emma oyi nima bo'ldi-dedi qizaloq mayin oxangda.

-Senga singil olib kelishdi Sara-deb qizni qo'liga olib. U ni bir g'alati yopinchiqqa o'rab ketishgandi. Yopinchiqda lochin ramzi bor edi.

-Qanday ajoyib endi meni singlim bor-deb Sara sakrab yubordi. Emma esa shunchaki bolani ichkariga olib kirib ketdi. Kunlar o'tdi, oylar o'tdi. Qizaloqqa Keyt deb ism qo'yishdi. U bilan faqat Sara chiqishardi. Chunki Keyt tabiatan xuddi bolalarga o'xshab qolgandi. Urushdan qochmas, xammaning ko'ziga tikka qarab turuvchi bu qiz xech narsadan

qaytmasdi. Shunday qilib Keyt 10 yoshga, Sara esa 14 yoshga to'ldi.

-Keyt yana mushtlashdingmi?-deb tanbeh berdi Sara uning yorilgan va yirtilgan qoshiga qarab.

-Iltimos boshlama-deb xonasiga chiqib ketmoqchi edi, bir notanish kishiga to'qnashib ketdi. Sendi bilan bo'lgan tortishunvdan asablari buzulib turgan qizni battar jazavasi tutdi.

-KO'zingga qarab yursang o'lasanmi?-deb qo'pollik bilan, xurmatni eslamay o'rnidan turib xonasiga chiqib ketdi. Sara esa uning ortidan notanish kishidan uzr so'rab, Keytni ortidan chiqib ketdi. Notanish kishi esa qora kostyum shimda, sochlari taralgan va tozza kiyinganiga qaraganda qandaydir katta ishda ishlar edi.

-Kechirasiz janob Miller-deb Emma xonim darrov yetib keldi-Kuttirib qo'yganim uchun uzr

-Uzr so'rashga xojat yo'q-deb kamtarlik qilib qo'ydi Miller

-Xo'sh janob Miller shunday qilib qiz asrab olmoqchiman deng-deb kulib qo'ydi Emma

Keyt xonasiga kirishi bilan eshikni kuch bilan yopib to'g'ri yuvinish xonasiga kirib bordi.Oynaga tikilib o'z aksiga qaradi.

-Qanchalar daxshatli-dedi o'z aksiga qarab va kulib yubordi-Odatda nima bo'ladi-deb gapirib kulardi-Odatda bunday paytda yig'laysan,keyin esa o'zingdan nafratlanasan-deb zaxarli tabassum qilib qo'yib yuz qo'lini yuvdi.Eshik ochilib yopilgani eshitildi.

-Boyagi kishiga bekorga qo'pollik qilding Keyt-deb tanbex berishni boshladi Sara

-Yo'limda turmasin edi-deb o'zini oqlay boshladi Keyt.Chiqib qarasa Sara qo'lida dori qutisi bilan turardi.

-Menimcha bu quti meni maktab sumkamga o'xshab qoldi-deb xazil qilishga urindi Keyt.

-Umuman olganda yostig'ingga deb-Sara xam xazil qilib qo'ydi.Paxtani spirt bilan xo'llab Keytni chakkasiga olib keldi.

-Xozir og'riydi-dedi va paxtani uning chakkasiga bosdi.Keyt yuzi og'riqdan burishdi.

-Sendi bilan nimani deb mushtlashding?-qiziqqa boshladi Sara

-UMuman olganda u o'zi boshladi-deb voqeani ayta boshladi Keyt,u shunday boshlasa doimo musht urishni o'zi boshlab bergan bo'lardi-Maktabda o'z narsalarni maqtana boshladi.Meni yomon ko'rishini bilasan-deb tutilib qoldi-Ay,sekinroq-dedi boshini tortib olib

-Achishishini bilasan-deb ishini davom ettirdi Sara

-Keyin esa meni oldimda ataylab eshittirib gapira boshladi-deb davom etdi Keyt-Keyin esa chiqib ketmoqchi edim,ammo"bazi bir yetimchalarga qaraganda menda xamma narsa yetarli" deb aytdi-u gapirganda xam Sendiga taqlid qilishga urindi-Men bunga xam chidadim,ammo keyingisiga chiday olmadim-deb jimib qoldi-U yog'ini esa o'zing bilasan

-Ana ish bitti-dedi Sara Keytni yarasini davolab qo'yib,yarani Keytning bir tutam sochi bilan yopib qo'ydi.Uning ko'rinishi juda ajoyib edi.Sara xam xuddi unga o'xshash edi.Ammo

yuzlari sal cho'ziqroq va sochlarini yuziga ko'proq tushirib yurardi. Bu esa unga yarashardi
-Qani o'zimga kel-deb qo'llarini ochdi. Keytni uni quchoqlab oldi.

-Sen bo'lmasang men nima qilardim?-dedi Keyt uni qo'yib yubormay.

-unday dema-dedi Sara g'amgin ovozda. Zinadan qadam tovushlari eshitila boshladi.

-Tartibsiz qadam tovushlari-dedi Keyt-Demak ular ikki kishi, bunday qadam tashlashidan esa U katta kishi ekanligi aniq-dedi Keyt

-Miyangni ishlashiga qoyil qolaman-dedi Sara kulib qo'yib-Yaralaring xam tez bitadi, xech kim seni 3 kun oldin mushtlashib labini yorib olgan qiz demaydi-deb uni labini silab qo'ydi.

-Bo'ldi-deb Keyt o'zini tortib oldi.

-Sendan bir narsani so'rasam bo'ladimi?-dedi sara unga qarab-Nega doimo kaltak yeganingda xam kulasan?-dedi qiziqib. Keytni yuvinish xonasida o'z aksiga qarab kulishini u oldin xam ko'rgandi.

-Qarg'a qarg'ani ko'zini cho'qimaydi deyishadi-u bunday paytlarda esa epigraf keltirishni yoqtirardi-Bizda esa bundanda battar,dunyo shunchalar tubanlashib ketmoqdaki,bizni kulishdan boshqa ilojimiz yo'q-dedi Keyt sirli jilmayib.

-Penniwise-dedi Sara uni so'zlarini kimga tegishli ekanini topishga urinib

-Joker-dedi Keyt uni yelkasiga qo'lini qo'yib.U Saradan 5 sm ga kichik edi.Shu payt eshik ochilib ichkariga boyagi janob Miller va Emma xonimlar kirib kelishdi.Keyt boyagi kishini ko'rib uff tortib qo'ydi.

-Unday qilma-deb Sara uni ushlab qoldi.

-Agar meni kechirim so'rashimni kutayotgan bo'lsangiz,xomtama bo'lasiz-deb Keyt o'zidan bezbetni yasab oldi.

-Afsus u biroz qo'polroq-deb Keytni o'rniga Sara kechirim so'radi.

-Janob Miller ko'rganingizdek mana bizni qizlar-deb Emma xonim ularni tanishtirdi

-Tanishinglar janob Ben Miller-deb u kishini tanitdilar,uzun bo'y qora soch,yashil ko'zlar,dumaloq yuz-Bular esa Keyt va Sara

-Salom qizlar meni ismim Ben,tanishganimdan xursangman-deb o'zini jentelmenlardek tutmoqchi bo'ldi Ben

-Maqsadga o'ting-dedi Keyt o'ylanib xam o'tirmay,Ben esa xayron qoldi-Meni uzundan uzoq gaplarga xoxishim yo'q,darrov maqsasga o'ting-deyishi bilan uni Sara chimchilab oldi.Keyt esa unga o'qrayib qarab oldi.SHu payt xonaga boshqa bir odam kirib keldi.Uning ko'rinishi xam xuddi Bennikidek edi.Xuddi udek kiyingan odam edi.

-Bu kishining ismi Jon Miller,meni ukam va xamkasbim-deb uni xam tanishtirdi-Xullas biz sizlarni asrab olmoqchimiz-deb Ben xam maqsadga o'tdi.

-Bo'lishi mumkin emas-deb yubordi Keyt va kulib qo'ydi.

-Demak biz...asrab-deb Sara tutilib qoldi. SHunday qilib xammasi xal bo'ldi. Ularni yanggi oilalariga topshirib yuborishdi. Qizlar deyarli xursang edilar. Ammo kelajakda nimalar bo'lishini xali xech kim bilmasdi. Oradan ancha vaqtlar o'tdi. Bu paytda esa ularning ota-onalari biri jinoyatchi biri esa politsiyachi bo'lib chiqdi. Sara ularni ko'rib palitsiyachi bo'lishni xoxlab qoldi. Ben esa Keytga o'z bilganlarini odam o'ldirishni o'rgata boshladi. U aslida qizni o'ziga o'rin bosar qilish uchun asrab olgandi. Keyt Sara bilan barcha aloqalarini uzdi. Faqat bazida gaplashib turardi. Maktabga xam bormay qo'ydi. Ben uni bir alohida maktabga joylashtirib qo'ydi. Oddiy qizlar Keytning yoshida yozishni o'rgansa, Keyt ularning yoshida qurol ushlashni o'rgandi. Oddiy qizlar o'z dugonalari bilan bu paytda odatiy o'yinlar o'ynasa, Keyt o'z dugonalari bilan mushtlashardi. 20 yoshda barcha kollejda o'qisa u qurol olib odamlar ortidan tushib ularni o'ldirardi. Kechki ovqat uchun xam mushtlashishga to'g'ri kelardi. Xullas u 18

yoshgacha shunday yashadi.18 yoshga kirgan kunidan esa deyarli maxsus tayyorgarlikdan o'tgan qotil edi.Ammo tepkini bosish oson,uni odamga qarata bosish esa juda xam qiyin.U doimo shuni o'ylab yurardi.U Sara bilan nimalar bo'layotganiga xam qiziqardi.Aynan shu qiziqishi tufayli Sara uning tushlariga xam kirib chiqardi.U bilan uchrashaman desa ular boshqa shaxarga ko'chib ketishgandi.Xullas vaqt o'tgandan so'ng Keytga ilk topshiriqni berishdi.Uning nishoni prezidentlikka nomzodini qo'ygan deputat edi.U o'zi reja tuzib barchasini o'ylab chiqdi.Uning rejasiga ko'ra Keyt snayper bilan uni masofadan xammaning ko'z oldida o'ldirishi kerak edi.Buning uchun esa u 1 xafta avval tayyorlanishni boshladi.Bir binoni mo'ljalladi.Keyin esa u yerdan qochishni xam o'ylab qo'ydi.Qochgandan so'ng esa transport muammosini xam xal qildi.O'sha kun xam keldi.Keyt deyarli uxlamagandi.Chunki xayajonda edi.Umrida odam o'ldirmagan odamga odam o'ldirishni topshirish.Xammasi reja bo'yicha borardi.Ammo o'sha kun bir

voqea barcha rejalarni buzib yubordi. Deputat mexmonxonada turib nutq soʻzlar ekan. Aslida esa oʻz kompaniyasi oldida turib nutq soʻzlashi kerak edi.

-eshit Keyt sen uni bugun tinchitishing kerak-dedi Ben jaxli chiqib

-Bilib turibman,baqirish shart emas-dedi Keyt mashinada ketar ekan.

-Rejang bormi?-dedi Ben oʻzini sal qoʻlga olib.

-Menda xamma narsa ikkitadan boʻladi,xavotirlanma-deb uni tinchlantirdi Keyt

-Keyt...oʻzingni asra-soʻnggi soʻzlar yurakdan aytilgandi.Keyt xech narsa demay shunchaki mashinadan tushib ketdi.U doimo qoʻllashni orzu qiladigan qurollarini bugun sinab koʻrmoqchi edi.Qora plash,assasinlarning qoʻl pichoqlari va yana shunga oʻxshash qurollar.Deyarli tish-tirnogʻigacha qurollandi.Mexmonxonaga xam askarlar tekshirib kirgazishadi.Ulardan oʻtishni xam oʻylab qoʻydi.Shunchaki ularni shovqinsiz

gumdon qilish. Boshini egib ularni oldiga qarab yura boshladi.

-Kimsan, to'xta-deb soqchilardan biri qurolga qo'lini olib bordi.

-Ey men...-gapirishga ulgurmasidan Keyt uni xushsizlantirdi. Ikkinchisi endi ratsiyaga gapirmoqchi bo'lganida esa uni bo'yniga ignali quroldan otdi. Puflama qurol uni xushidan ketgazdi. Keyt ularni ikkisini xam bog'lab, yashirib qo'ydi.

-Xo'sh hozircha xammasi yaxshi-deb Keyt nishon tomon odimladi. Kechga kelib eshik oldiga juda ko'p odamlar yig'ildi. Shularning ko'pchiligi esa jurnalistlar edi. Uning nishoni doimo o'ziga ishongani uchunmi, yoki buni o'zi xoxlamaganmi kamroq soqchilar bilan yurardi. Ular liftga kirishdi. Keyt esa ularni telefon orqali kuzatib turardi. Rejadagi payt lift dan chiqishdi. Keyt xam ularga ergasha boshladi. Shunday yurardiki, shovqinsiz xech kim uni sezmasdi. Ular eshik oldiga yetib kelishdi. Keyt ikkala soqchini yelkasidan turtib

qo'ydi.Ular ortlariga qaraganda esa qo'llaridagi qurollar bilan ularni bo'g'izlab yubordi.

-Salom janob-Keytning kiyimiga ovoz o'zgartirgich ulangandi.

-Sen...-deyishi bilan uni xam bo'g'izlab yubordi.Keyin esa berkindi va qo'lidagi pult bilan eshikni ochib yubordi.Deputat esa tomog'ini ushlagancha xammaning oldiga chiqib bordi.Barchasi Keyt kutgandek,endi esa bu yerdan shunchaki juftakni rostlash qolgandi.Buni xam o'ylab qo'ygandi.Mashinagacha ozgina masofa bo'lgani uchun u yerdan qochib ketishga qiynalmadi.Ammo nimagadir uning lablari va qo'llari titrar edi.Qo'llariga qaraganda esa faqat qonni ko'rardi.Albatta,qotillik boshida shunday tuyuladi.Aqildan ozishingizga oz qoladi.Ammo keyinchalik o'rganib qolasiz.Qotillik siz uchun shunchaki oddiy ishga o'xshab qoladi.Bir marta qilsangiz,yana qilishingizga ishonasiz va qilaverasiz.Qotillik odamni xissiz qilib qo'yadi.Keyt shu xayollar bilan uyigacha yetib

bordi.Endi u aloxida yashar edi.Uyiga kirishi bilan o'zini yotoqqa tashladi va uyquga ketdi.

Qorong'u xona.Keyt xammayoqqa qarab chiqdi.Xech narsa yo'q ammo,qo'llariga qarashi bilan baqirib yubordi.Uning qo'llari qon edi.Ortgga yurib nimagadir qoqilib ketdi.Qoqilib ketgan narsasiga qaraganda esa ikki soqchini ko'rdi.Sal nariroqda esa deputat xam yotardi.Keyt baqirib uyg'onib ketdi.U uchun odat bo'lib qolgan yostiq tagidaga qurolni olib atrofga qaradi.Keyin esa derazadan tushayotgan quyosh nurlarini ko'rib,soatiga qaradi.Soat tonggi 8:00 ni ko'rsatardi.

-Menga nimalar bo'layapti-deb telefoniga qaradi.Bendan 4 ta qabul qilinmagan qo'ng'iroq.Unga qaytib qo'ng'iroq qildi.

-Alo-deyishi bilan Ben baqirishga o'tib ketdi.

-Senga necha marta qo'ng'iroq qildim-shunday baqirardiki,uning ovozi xonani qomatga keltirardi.

-Sekinroq-dedi uni baqirishdan to'xtashini kutib-Topshiriq bajarildi-dedi o'zini xuddi bemorlardek tutib.

-Senga nima bo'ldi,kasalmisan-etibor berdi Ben.

-Yo'q shunchaki kecha 3 tasini gumdon qildim-deb kesatdi Keyt.

-Tushunaman,birinchisi shunday bo'ladi,o'zingni qo'lga ol-deb dalda berdi Ben.

-Yaxshi-deb Keyt qo'ng'iroqni yakunladi.Vaqt u barcha narsaga davo.Kunlar o'tdi.ketidan oylar,keyin esa yillar.Keyt uchun bularni bari odat tusiga kirdi.U endi 20 yoshda edi.Nyu-Yorkda universitetda o'qirdi.Bu u uchun niqob edi.ASlida esa doimgidek odamlarni o'ldirardi.Bir kuni katta ko'chada ketayotganida esa telefoniga qarab,kimgadir urilib ketdi.Qo'lidagi kitoblari esa qo'lidan tushib ketdi.

-Kechiring-deb Keyt endi kitoblarini olayotganida o'ziga tanish bo'lgan ovoz eshitildi.

-Keyt-u bu ovozni anchadan beri eshitmagandi.Ko'zlariga yosh keldi,o'sha damlarni va oxirgi uchrashuvlarini esladi.

-Sara-deb boshini ko'tarib unga qaradi.Qarshisida sochlari xozir yelkasigacha tushadigan chiroyi esa ancha ochilib ketgan Sara turardi.

-keyt-deb Sara uni quchoqlab oldi.Ikkisi ancha payt quchoqlashib turishdi-Keyt ancha go'zal bo'lib ketibsan va katta xam-deb unga kulib qarab qo'ydi.

-Sen xam-deb unga jiddiy nazar soldi-Juda go'zal FQB xodimi bo'libsan-deb nishoniga va quroliga ishora qildi.

-Doimgidek-deb uni yelkasiga musht urib qo'ydi.

-Ay-deb Keyt yelkasini ushlab oldi.Kechagi qochish paytida arqonga oxirgi laxzalarda osilib qolgandi.Bundan keyin esa uning yelkasining paylari cho'zilgandi.

-Nimjon bo'lib qolmadingmi?-deb kulib qo'ydi Sara

-Yo'q,sen kuchli bo'lib ketibsana-deb Keyt gapni xazilga burib yubordi-Oldinlari boshqacha edi.

-Yuraqol-deb Sara uni kafega boshlab ketdi.Kirishlar bilan ko'zlari televizordagi xabarlar dasturiga tushdi.

-Kecha kechqurun tunggi soat sakkizlarda Nyu-York shahri xokimining o'rinbosari o'ldirib ketilgan,guvohlarning axborot berishicha bu "Lochinko'z assassin"ning ishi.Uni keyinchalik taqib qilishgan.Ammo u boshqa binoga sakrab o'tgan-deganidan so'ng video tasvir qo'yildi.Unda Keyt boshqa binoga sakragani va arqonga amallab osilib qolgani tasvirlangandi.

-Qotilni izlash ishlari davom etmoqda-deyishi bilan Sara uni tortqilab ketdi.Ular bir stolga borib o'tirishdi.barcha narsalardan gaplashishdi.Ikki opa-singil bir-birining diydoriga to'yib olishdi.

-Aytchi FQBga qachon o'tkazishdi?-deb qiziqdi
Key tuning nishoniga ishora qilib

-Bir necha kun avval-deb qaxvasidan xo'pladi
Sara

-Xo'sh kimni ishi bilan
shug'ullanmoqchisan,yoki ular o'zlari
berishadimi?-deb yana yangiliklarga qaradi.U
yerda xali xam o'zi xaqidaga malumotlar
ketayotgandi.

-Menga allaqachon ish berishdi-dedi Sara jiddiy
tortib

-Xo'sh-dedi Keyt qaxvasini qo'lga olib-
Kimni,ko'cha qoida buzarlaringimi?-deb xazil
qilib endi qaxvasidan ichmoqchi edi Sarani
javobini eshitib karaxt axvolga tushib qoldi.

-Yo'q,"Lochinko'z assassin"ishini-deyishi bilan
Keytni qattiq yo'tal tutdi.U buni boshida xazil
deb o'ylagandi.

-Bu xazilmi?-deb yo'tala boshladi-Ayt xazil de-
deb Saraga qaradi.Ammo uning nigohi jiddiy
edi.

-Bunday ishlarda xazillashmayman-deb qaxvasidan xo'plab xujjatlarni stol ustiga qo'ydi-Senga ko'rsatayotgan narsalarim o'ta maxfiy,agar meni sen bilan shularni muhokama qilayotganimni ko'rishsa men tamomman-deb bo'ynini silab,o'lding degan ishorani qilib qo'ydi.

-Katta stol atrofidaman deign-deb qo'ydi Keyt

-O'zingdan gapir-deb xujjatlarni yig'ishtirdi Sara

-Men o'qiyapman-deb boshqa xech narsa demadi.Shu payt Keytni telefoni jiringlab qoldi.

-Salom-deb Ben bilan xuddi dugonasidek gaplashishga xarakat qildi.

-Salom men Benman-dedi Ben jiddiy

-Salom Sendi-dedi kulib Keyt.

-Qanaqa Sendi?-xayron qoldi Ben

-Xa,men yaxshiman xozir opajonim bilanman,aytsam ishonmaysan-deb Keyt o'zini maqtanayotgan odamlardek tuta boshladi-U endi FQB xodimi,shunday ekan endi xisob biru bir-deb kulib qo'ydi Keyt

-Yaramas-deb Sara xam o'tirgan joyida kulib qo'ydi.Keyt esa ko'z qisib qo'ydi.

-Shunday de,-dedi Ben o'ylanib-Unda xaliroq yangi nishonni kordinatalarini yuboraman-deb qo'ng'iroqni qo'ydi.

-Kim edi?-dedi Sara unga termulib

-Dugonam,kursdoshim-deb qo'ydi Keyt.

-Yaxshi-deb qo'ydi Sara.Ammo uning o'ynoqi ko'zlari aldayotganini bilib turardi.Bu yerda nimadir bor-deb o'ylay boshladi.Keyin esa yigiti bo'lsa kerak deb o'yladi.Ammo uni yigiti bor bo'lishi mumkinligiga ishonmadi.SHu xayollar bilan bo'lib sherigi kelganini sezmay xam qoldi

-Salom xonimlar-deb bir kostyum shim kiygan yigit kelib Saraning yoniga o'tirdi.

-Salom Toby,tanish bu mening singlim Keyt-deb Ularni tanishtirdi-Keyt,meni sherigim Toby-deganlaridan so'ng esa ular sovuqqina qo'l siqishib qo'yishdi.Keyin esa Keyt kech qolayapman deb baxona qilib chiqib ketdi.Uyiga borib o'tirib rosa o'yladi.

-Bir kun kelib menga yaqinlarimdan kimdir qarshi chiqadi deb o'ylagandim-dedi oynaga qarab,uning chetida bir kichkina rasm turardi- Ammo o'sha sen bo'lasan deb o'ylamgandim Sara-deb rasmdagi kichkina Sara va o'ziga qaradi.Bir soatdan so'ng esa SMS keldi.

-“Nishoning senator,Bill Broker”-degan yozuv bor edi xolos.

-Yaxshi-deb tepa qavatga ko'tarildi.Shkafni ochib bir kitobni o'ziga qarata tortdi.Shu payt shkaf chap tomonga surildi.Ortida esa maxfiy xonada qurollar qalashib yotardi.Ichkariga kirib o'zining sevimli qurollarini oldi.M24A1 snayperini olib tozalab chiqdi.Keyin esa uni maxsus uskunaga o'rnatdi.Undan so'ng oynali Javon ichidagi “Lochinko'z Assasin”kiyimini oldiga bordi va unga qaradi.Ko'zguda uning bosh qismi kiymning tepa qismida qilib ko'rsatib turardi.

-Bir odam faqat 1 xayotda yashashi mumkin-deb o'ziga o'zi gapira boshladi-Ammo 2 ta xayotda yashash,ming lanat-deb jaxlini oynaga

qilib uni urib sindirdi. Keyin esa qo'llariga qaradi. Ular jaroxatlangan va qon oqardi. Qo'llarini shunchaki bog'lab oldi va reja tuza boshladi. Uning binosi shifoxona to'g'risida ekan. Tomda 2 ta askar soqchilikda turadi. Pastda esa bir nechta, sanog'iga yetolmaysan kishi. Snayperni uskunadan ajratib oldi. Reja quyidagicha bo'ladigan bo'ldi. Shifoxona tomiga chiqish bu birinchi bosqich, u buni eplaydi. Shifoxona tomiga chiqib atrofni kuzatdi va barchasi toza ekanligiga ishonch xosil qildi. Uning ishga tushirgan xakerlar uskunasi barcha kameralarni bloklab qo'ygandi. Snayperini joylashtirib o'zi snayper pozitsiyasini egalladi. Kuzata boshladi. Barchasi toza, asta sekin askarlarni qidirib topdi. Birida AK74, ikkinchisida esa AK47 avtomatlari. Shamolni va bosimni xisobga olib barchasini to'g'riladi. Keyin esa bir askarni oyog'ini asta nishonga oldi.

-Xuuu-deb nafasini chiqarib tepkini bosdi. Miltiqni uchiga ovoz bug'gich

(глюшитель) o'rnatilganligi sababli hech kim hech narsani payqamadi. O'q esa askarni oyog'ini teshib chiqib ketdi. U kutganidek soqchilar tez yordamga qo'ng'iroq qilishdi. Bu paytda esa Keyt vertolyotni tagida edi. Yarasi og'ir bo'lganligi uchun uni vertolyotda olib ketishlarini xam rejasiga qo'shgandi. U shunday yashirinib, shunday chiqib ketdiki, hech kim buni payqamadi. Ichkariga kirib senatorni xonasini topdi. Qo'shni xonaga kirib devorga bir uskunani yopishtirdi. Uni yordami bilan qo'shni xonadagi suxbatlarni eshitish mumkin edi.

-Janob Senator tashvishlanmang, agentlarimiz Sara Miller va Toby Evanslar qo'riqlashadidegan ovozni eshitgan ediki, Keyt shokka tushib qoldi. Tezda u yerdan ketib yashirindi. Keyinchalik esa barchasini o'ylab ko'rdi. Lekin nimalarni o'ylasa xam barchasida Sara va Toby ishtirok etardi.

-Meni kechir Sara-deb yosh aralash ko'zlarini artib tashqariga chiqdi. bu paytda esa u kutgandek barchasi reja bo'yicha ketardi. Pastda

soqchilar juda kuchli edi.Pastga tushishning yagona yo'li esa kimningdir sherigi bo'lib tushish edi.Keyt kiyiming ustidan kostyum shim kiyib pastga tushdi.Yo'lda qora kostyum shim kiygan erkakka duch keldi.Bu esa uning foydasiga ishladi.U undan sal nariroqqa turib oldi.Qo'lida esa qog'oz bo'lib,soqchilar uni kishining yordamchisi deb o'ylashdi.Uning qulog'ida ko'rinmas quloqchin bo'lganligi va gapirib ketayotganligi uchun,Keyt barchaning ko'ziga yozib ketayotgandek ko'rinardi.Pastga tushdi xam,uning qo'lida o'zi tayyorlagan uskuna bo'lganligi sabab uni o'rnatish qolgandi.Bu uskuna lazer nurlarni bilan ishlardi.Yani uning ichida o'yuvchi suyuqlik bo'lganligi sababli,kimdir uning lazerini kesib o'tsa quti portlab suyuqlikni sochib yuborardi.Reja puxta o'ylangandi.Ammo yo'lda senatorning ko'ylagiga qaxva to'kilib ketishi,rejada yo'q edi.Keyt detanatorni yasagandi,ammo o'chirish tugmasini qo'shmagandi.Aniqrog'l uni keragi yo'q deb,detanatorni xam tashlab

kelgandi.Qurilmani chiqish eshigi tagiga o'rnatdi.Xammasi boshlandi.U xonasidan chiqdi.Ammo yo'lda qaxva to'kilib ketdi.Keyt rejaga o'zgartirish kiritishni xoxlamadi.Senator kela boshladi.Eshikka yetdi xam,ammo baxtga qarshi undan oldin bir bolakay ichkariga kirib ketdi.Keyt kamera ko'rmaydigan joyda turgani uchun uni xech kim ko'rmasdi.Chunki kameralarni xam xisobga olgandi.Bolakayni ko'rib Keytning yuragi dukirlab ketdi.

-Yo'q,ket-deb pichirladi o'ziga o'zi.Ammo bolakay ortga qadam tashladi.Chunki senator endi kirgandi.

-Yo'q-deb Keyt baqirib yubordi.Sara xushyor tortdi.Kutilmaganda esa moslama portlab ichidagi suyuqlik sochilib ketdi.Keyt shok xolatida edi.U doimo bir ishni boshlashdan oldin niyat qilardi.Bolalarni o'ldirmay,boradigan joyimda bolalar bo'lmasin derdi.Ammo baxtga qarshi qo'rqqan narsang oldingga kelar ekan.Bolakay suyuqlik tasirida o'sha joyning o'zidayoq vafot etdi.Senatorga esa xech narsa

qilmadi. Keytni ko'zlaridan yoshlar chiqa boshladi. Ammo vaqtni ortga qaytara olmaysan. Bolakayning ota-onasi yugurib kelishdi. Ularning xam ko'zlaridan yosh quyilardi. Bolalarni quchoqlab yig'lashardi. 5 yoshli go'dak. Xali xayot xaqida xech narsani bilmaydigan, endi ajoyib bolalik gashtini surayotgan go'dak xammaning ko'z oldida o'ldi. Keyt o'zini qo'lga olib keta boshladi. Sara esa uni payqab qoldi.

-Qotilni ko'rdim, ortimdan-deb baqirib yugurib ketdi. Keyt esa uning ovozini eshitib yugurishga tushdi.

-Ming lanat-deb kiyimlarini yechib "qotil" kiyimiga o'tib oldi. Tomgacha yugurib chiqdi. Sara xam uni tomgacha taqib qilib bordi. Tomda esa uni qo'lga oldi. Sara uni to'pponchasi bilan ushlab turardi.

-To'xta-deb uni to'xtatdi. Keyt xam to'xtadi. Saraning ortidagilar Keytni qo'lga olish uchun borishdi. Ammo Keyt chaqqonlik bilan ularni ushlab xushsizlantirdi.

-Otishimni xoxlaysanmi?-deb uni qorniga otdi.Keytni yuzida niqob bor edi va u faqat Keytning peshona qismi va ko'zlarini ko'rsatib turgandi.Keyt jaroxatini ushlab amallab Saraga qaradi.

-Sen nimalar qilganingni bilasanmi?-deb yig'l aralash gapira boshladi Sara-Sen...bugun....bir yosh bolani..o'ldirding,qotil-deb oxirgi so'ziga aloxida urg'u berdi.Keyt xam unga shunday qarardiki,xuddi men shu taqdirni xoxlaganmidim?-degandek edi.

-Sara Miller-dedi o'zini qotillardek tutib-Xali ko'rishamiz-deb so'zlarni qotillardek aytishga urinsa xam,ko'nglida bunday emasdi-Albatta-deb qo'lidagi gazli bo'mbalarni oyog'l tagiga tashladi.So'ngra parashutni taqib o'zini tomdan tashladi.Yerga qo'ndi xam,keyin esa mashinasiga o'tirdi va uyiga qarab yo'l oldi.

-Alo Keyt-dedi Ben telefon orqali

-Nima deysan?-dedi Keyt qiynalib

-Ish qanday bitdi?-dedi qiziqib-Axvoling yaxshi emasmi deyman-dedi

-Senator tirik-dedi sukut saqlab

-Nima?-deb baqirib yubordi Ben-Men katta stol atrofiga o'tirishim uchun u o'lgan bo'lishi kerak-deb baqirib yubordi.O'zi bilmagan xolda,rejasini gullab qo'ydi.

-Xozircha-dedi vishillab.

-Yaxshi-dedi Ben.Ben o'zgargandi.Keyt buni darrov payqagandi.Chunki oldingi Ben uni axvoliga doimo qiziqardi.Ammo hozirgisi,umuman boshqa odam edi.Keyt uyigacha yetib bordi.Jaroxatlarini yaralarini bog'lab oldi.Qo'lidagi ertalabki bog'lagan bog'ichini olib tashladi.Qo'lida xatto chandiq xam yo'q edi.U kompyuter oldiga borib,Benning kompyuteriga masofadan yorib kirdi.Birinchi qiladigan ishi uning yozishmalarini tekshirdi.Kutganidek chiqdi.Ben o'zini notanish kimsaga "Lochin ko'z assassin"deb tanitgandi.Keyt qo'llariga qarab baqirib yubordi.Xuddi birinchi safardagidek

bo'ldi. Qo'llarida qon, keyin esa yugurib qo'llarini yuvdi. Ammo qon ketmadi. Oynaga qaraganda esa unga o'sha bolakay qarab turardi.

-Men...men xoxlamagandim-deb yig'lay boshladi. SHu payt esa u ko'zini kompyuter oldida ochdi.

-Bari tusht ekan-deb uyg'ondi. Ammo terlab ketgandi. Kompyuterda esa Ben o'sha notanish bilan yozishardi.

-Menimcha sen mafiyaga kirmoqchisan-deb Keyt kompyuterga qaradi. Xaqiqatan xam shunday bo'lib chiqdi. Birozdan so'ng Ben qo'ng'iroq qildi.

-Alo-dedi Keyt go'shakni olib

-Alo, Keyt buyurtmachining jaxli chiqayapti-deb gap boshladi, salom xam yo'q-Indingacha sog' qolmasiligi kerak.

-Men xozircha dedimmi, demak u o'ladi-deb go'shakni joyiga qo'ydi. Uni vijdon azobi qiynay boshladi.

-Menga bunday xayotda o'rin yo'q-deb o'ziga o'zi gapira boshladi.Uning ich etini nimadir kemirardi.Ammo u juda og'riqli kemirardi.Keyt esa bunga chiday olmasdi.U reja tuza boshladi.Ammo bu safargi rejasida so'nggida o'zi o'lishi kerak edi.Ertasi kuni senatorning bir bino tomida bir ziyofatda nutq so'zlashi kerak edi.Keyt uni shu ziyofatda o'ldirishni rejalashtirdi.Barchasini taxt qilib qo'ydi.Ammo u jaroxati bilan ishlay olmasdi.Shuning uchun xech bo'lmasa,yarim kun kutishi kerak edi.ertasiga ko'chada aylanib yurganida esa yana Sara va Tobyga duch kelib qoldi.

-Salom Keyt-dedi Sara o'zini kulishga majburlab

-Salom Sara-dedi Keyt uni quchoqlab-Toby-deb unga qarab qo'ydi.

-Nima yangiliklar-dedi Sara unga nigoxini qadab

-Xech narsa,o'zinglardachi,bilishimcha kecha qotilni ushlashinglarga sal qolibdi-dedi Keyt o'zini yangiliklar ko'rgandek qilib ko'rsatib.

-Xa-deb qo'ydi Sara

-Mayli,men ketishim kerak,darsimga kech qolayapman-deb yugurib ketdi.Sara va Toby uning ortidan kuzatib qolishdi.

-qiziq-dedi Sara o'ylanib qolib.

-Nega?-dedi Toby unga g'alati qarab

-Yangiliklarda bizni ismimiz aytilmagandi,u esa qayerdan biladi?-deb taxminini aytdi Sara.

-Aytmoqchisanki.....

Keyt darslarini tamomlab uyiga bordi.Keyin esa ishga o'tlandi.Bugun o'sha kun.

-Xech bo'lmasa,bitta yaramas o'ladi-dedi Keyt vishillab.O'sha binoga bordi va ichkariga kirib olish muammo bo'lmadi.U ichkariga kirib tomga ko'tarildi.Senator doimgidek soqchilar qurshovida,lekin Sara va Toby ko'rinmayapti..Keyt shoshilmasdan yaqinlashdi.Barcha soqchilarni tinchitib,senatorga yaqinlashdi.

-Salom Senator-deb qo'llaridagi pichoqlar bilan uni bo'g'izlab yubordi.Uning tomog'idan qon

daryo bo'lib oqardi. Shu payt Keyt ortida xarakatni payqadi.

-Demak mana qayerrda ekansan, agent Sara Miller-deb Keyt ortiga qaradi. u yerda Sara va Toby unga qurol o'qtab turishardi. Keyt qo'llarini ortiga olib borib, quloqni qomatga keltiruvchi bo'mbalarni oldi

-endi qochib keta olmaysan-dedi Toby baqirib

-qochish jonimga tegdi-dedi Keyt qo'llarini yozib-Bilasizmi, kim bolalarni va o'z do'stlarini o'ldirsa, yoki yovuzlik yo'lida boshqalarni o'ldirsa, u daxshatli o'ladi-deb bombalarni tashladi-Unutma buni-deb Keyt yugurib ketdi. Sara esa bombaning ovozidan quloqlarini yopib qutulib qolgandi. toby esa karaxt axvolda. Sara uning ortida yugurdi. U Keytni bino tomida tutib oldi. Keyt sakrashga tayyor turardi.

-Meni to'xtatma-deb baqirdi Keyt

-Men seni bunday o'lishingga yo'l qo'ymayman...Keyt-deb baqirdi. Keyt esa ko'zyoshlarini tiyib tura olmadi. ortiga o'girildi.

-Men qiynalib ketdim-deb yig'lab gapirardi-
Odamlar ular mening tushlarimga kirib
chiqishayapti,qiynalib ketdim-deb yig'lardi.

-Keyt-deb Sara xam yig'lab yubordi.

-Kechir,men tentak singlingni kechir-deb Keyt
ko'zlarini yumib o'zini tomdan
tashladi.Aniqrog'l ortga bir qadam bosdi.

-Keyt-deb Sara xam uning ortidan sakramoqchi
bo'ldi.Ammo uni tutib qoldi.Qo'llaridan ushlab
turardi.

-Qo'yib yubor-deb baqirdi Keyt.Ammo Keytni
vazni Saranikidan og'irroq bo'lgani uchun Keyt
sarani xam tortib ketdi.Ular qulay
boshlashdi.shunday vaziyatda o'zingga savol
berasan.

-Men shuncha payt nima uchun
yashadim,xayotim besamar o'tdimi?-deb
o'ylaysan.Ular suvga qulashdi.Cho'kib
borishardi.Shunday paytda uyg'onmaslikni Keyt
bir paytlar qanchalik xoxlagandi.Ammo xozir
barchasi boshqacha.Ular uyg'onishdi.Ammo

umuman boshqa joyda.Ular soxil bo'yida uyg'onishdi.

-Xatto o'lim xam meni olib ketishni istamayapti,naxotki men shunchalar keraksizman-deb o'tirib oldi Keyt.

-Men qayerdaman-deb Sara boshini ushlab amallab o'rnidan turdi.

-Men emas,biz-dedi Keyt o'rnidan turib.

-Qayerga?-dedi Sara uni ketayotganini ko'rib

-Yo'l topishga,senga g'alati tuyilmayaptimi o'rmonlar-deb qarshisidagi o'rmonga ishora qildi.

-Agar sen bo'lmaganingda bunday bo'lmasdi-deb Sara baqirib yubordi.

-Kimdir o'zini tomdan tashlasa,sen xam tashlaysanmi?-deb Keyt xam javob qaytardi.Saraning xam Keytning xam jaxli chiqib turgandi.Ammo ikkisi xam o'zini bosa bildi.

-Men qayerdamiz bilmayman,ammo xarakat qilish kerak-deb Keyt o'rmon tomon yura boshladi.

-Men xam sen bilan-deb Sara xam u bilan keta boshladi-Seni qo'lga olmas ekanman, sen bilan yuraveraman.

-O'zing bilasan-deb Keyt etibor bermay ketaverdi.O'rmonga xam yetib kelishdi.Ichkariga kirishib yarim soat yurishgandan so'ng bir so'qmoqqa duch kelishdi.So'qmoqdan esa oyog'l tortgan tomonga yurib ketishdi.5 daqiqadan so'ng esa ular tutunga duch kelishdi.Keyt va Sara darxol yashirinishdi.

-Odamlar bor deb o'ylaysanmi?-dedi Sara u yerni uzoqdan kuzatib.

-Xa,4 ta qilich bilan qurollangan odamlar bor,adashmasam...yana bir qizaloq bor.Yoshi 15 da-dedi tikilib turib

-Masofa qanchaligini bilasanmi?-dedi Sara uning gaplariga ishonmay

-Kamida 415 m-dedi va o'sha tomonga qarab keta boshladi

-Qayoqqa?-dedi Sara uni ketishini ko'rib

-Ulardan xammasini so' rashga-deb Saraga o' girildi-Men ulardan qo' riqmayman,ketishni istaysanmi?-deb unga savol berib,javobini kutmasdan ketib qoldi.

-Yaramas-deb Sara unga ergashishga majbur bo' ldi.Ular bu olamga tushib qolishlaridan oldin,Keyt o' zining qora kiyimida,Sara esa maxsus kiyimda edi.Keyt ikkilanmasdan ketib borardi.Saraning qadam tashlashidan esa uning qo' rqishi bilinardi.Keyt ularni olovi oldiga borib olovga qarab turdi.

-Bu aravalarni egasi kim?-deb baqirdi.

-Kim kerak-deb bir qilich ushlagan barzangi chiqib keldi

-Net xonimlar bilan extiyot bo' lish kerak-deb boshqasi chiqib keldi.Uning ortidan esa yana 2 ta sherigi chiqib keldi.

-Qizni qo' yib yuboringlar-dedi Keyt kiprik xam qoqmay.

-Undan ko' ra biz bilan ko' ngilxushlik qil-deb Net kelib Keytga tegachog' lik qila boshladi.Keyt esa

abjirlik bilan kamaridagi kunay(yapon nindzularining qurollaridan biri,kichik pichoq)ni olib uni tomog'iga sanchib qo'ydi.

-Yaramas-deb boyagi odam xam unga tashlandi.Ammo Keyt qimir etmay turardi.

-Qizni qutqar-deb Keyt pinagini xam buzmay to'g'risidagi bosqinchiga chap berdi va qo'lidagi pichoqlar bilan uni tanasiga xuddi bokschilardek zarba berdi.Zarbalar juda tez edi.Qolganlar xam tashlanishdi.Keyt bittasini ushlab pichoqni qorniga tiqib qo'ydi va ikki oyog'ining o'rtasiga yaxshilab tepid.Ikkinchisi esa qo'rqqanidan zo'rg'a turardi.Endi tashlanmoqchi bo'lganida esa,Keyt yana bir bor tepib

-O'ylab ko'r-deb ogoxlantirdi.U esa qochib ketdi.

-Nega bunday qilding,u boshqalarni xam boshlab keladi-degan ovoz eshitildi.Ortiga qarasa,moviy ko'z,sarg'ish soch,oppoq yuzli burni xam o'ziga yarashgan bir qiz turardi.

-O'zim tinchitaman-deb Sara to'pponchasini olib mo'ljalga oldi-Kech endi iloji yo'q-dedi qurolini tushurib.SHu payt Keyt uni qurolini tortib oldi va mo'ljalga oldi.Chuqur nafas olib,chiqardi.Keyin esa tepkini bosdi.Qurolning shovqini atrofni tutdi.Qochib ketayotgan bosqinchi esa boshini keskin qimirlatib quladi.

-400 metr,headshot(boshidan mo'ljalga urish)-deb kulib qo'ydi.

-Sen xech adashganmisan?-dedi Sara qurolini undan olib

-Xech qachon,men xech qachon adashmayman-deb ko'z qisib qo'ydi.

-Kimsizlar?-dedi boyagi qiz.Ular u xaqida ozginaga unutib qo'yishgandi.

-Salom qizaloq-dedi Keyt unga kulib qarab

-Meni bunday atama,men 15 yoshdaman-deb xo'mrayib qo'ydi qizaloq

-Yaxshi isming nima?-dedi jiddiy qiyofaga kirib.Uning bu ko'rinishi qizni etiborini

tortdi.Xozirgina unga kulib turgan ko'zlar,xozir juda sovuq nigoh bilan qarab turardi.

-Ismim Mira-dedi o'ylanib-Sizlar vampire emasmisizlar?-dedi qo'rqib.Keyt qarab turib kulib yubordi.

-Bu xazilmi?-dedi o'zini kulgidan to'xtatib-Vampirlar afsona-deb Miraga qarasa u jiddiy qiyofada turardi.

-Sizlar aniq vampirlarsizlar-deb endi qochib ketmoqchi edi,uni Sara to'xtatib qolmoqchi bo'ldi.Ammo Keyt qarshi emasligini ko'rib,xayron qoldi.

-Ketaversin-dedi Keyt pinagini xam buzmay.

-Nima senga baribirmi?-dedi Sara jaxli chiqib

-Xa,baribir malumot yo'q,befoyda-dedi zo'ravonlarning birini qilichini olib

-Sen yaramassan,men uni qanday axvolda ko'rganimni bilasanmi?-dedi Keytni yoqasidan olib-Men uni ota-onasining jasadlari ustidan olib chiqdim.

-Menga nima?-dedi Keyt o'zidan yuraksiz odamni yasab olib

-Seni xam ota-onagni ko'z oldingda o'ldirishganmi-deb uni ko'zlariga boqdi,bunday gaplar bilan esa uning qalbini yaralagandi- Kechir,iltimos o'ylamay gapirib yubordim-dedi Keytni qo'yib yuborib,Keytning ko'zidan esa bir tomchi yosh chiqdi.Ammo unga etibor bermadi.Keyt shunchaki boshi oqqan tomonga qarab keta boshladi.Sara esa xayotidagi eng katta xatolardan birini qilib qo'yganini payqadi.

-Meni kechir Keyt-deb qurolini o'qlarini tekshirib qo'yib Miraning ortidan yugurib ketdi.Mira o'rmon ichiga kirib ketgandi.Sara uning qoldirgan izlaridan borardi.Bir payt esa uning qichqirganini eshitib qoldi.Tezda o'sha tomonga qarab yugurib ketdi.Yetib borganida esa ko'zlariga ishonmadi.Uning qarshisida bo'ri odamlar turardi.Xaqiqiy bo'rilar.Juda katta va ulkan

-Bu xazilmi?-dedi Sara ularga xayrat bilan qarab.

-Orqadan-deb baqirdi Mira,Sarani ogoxlantirish uchun.Sara ortiga o'girilganida esa unga qarab bir bo'ri tishlarini g'ichirlatib turardi.Sara tezda unga qarata ota boshladi.Uni boshiga o'q joylab,Mirani oldiga otildi.Uni ximoya qilib turardi.Bo'rilar taxminan 4 nafar edilar.Sara qurolidagi o'qlarni tekshirdi va so'kinib qo'ydi

-O'qlarim yetmaydi-deb ularga qarab omon qolish yo'llarini izlay boshladi.SHu payt qayerdandir kamon o'qi kelib bittasining boshiga tegdi va u shu zaxoti jon taslim qildi.Mira va Sara xech narsaga tushinmay turishardi.Lekin qayerdandir Keyt paydo bo'ldi va qilichni yana bir bo'rining boshiga suqib oldi.Bo'ri silkinib uni tushirib yubordi.Qolgan ikki bo'ri uni o'ldirish uchun tashlanishdi.Ammo Keyt chaqqonlik qilib qilichini qo'lga oldi va ikkinchi bo'rini bo'g'izlab yubordi.Qon daryo bo'lib oqa boshladi.Ulkan qora bo'ri unga qarab tish qayrab turardi.Keyt qilichini olib unga qarab yugurdi va zarba berdi.Ammo bo'ri bu

zarbani tirnoqlari bilan qaytardi va qilich sinib ketdi.

-Qoyilqolmadim-deb qo'llarini ikki tomonga yozib assasinlar pichog'ini ishga soldi.

-U xaqiqiy vampire-dedi Mira qo'rquvdan yosh chiqib ketgan ko'zlarini Keytga qadab

-U vampire emas,meni singlim-deb Mirani tinchlantirdi Sara.Keyt yugurib,sakrab bo'rini ustiga chiqib olishga xarakat qildi.Ammo bo'ri chaqqonroq chiqib,egilib Keytni tirnoqlari bilan jaroxatladi.Keyt oyoqda zo'rg'a turardi.

-Jin ursin-deb o'ziga qarab yugurib kelayotgan bo'riga qaradi.Keyin esa ortiga qarab qocha boshladi.To'g'ri daraxtga qarab yugurardi.Daraxtga bir necha qadam bosib yuqoriladi va ortga salto qildi.Bo'ri esa buni kutmagandi.Keyt qo'lidagi pichoqlari bilan uning bo'yniga jaroxat yetkazdi.Keyin esa to'xtatmasdan pichoqlari bilan nozik joylariga zarba bera boshladi.Bo'ri xam bir necha soniyada jon taslim qildi.Keyt qon bo'lib ketgan

qo'llariga qarab keyin esa boshini ushlab oldi. Boshi aylanib uni yurishiga bermasdi.

-Ming lanat-deb yarasiga qaradi. Ko'p qon yo'qotgandi. Keyin esa Sara va Miraga qarab xushini yo'qotdi. Ko'zini qandaydir kulbada ochdi. Uni qornini bog'lab qo'yishgandi. Ko'zini ishqalab o'rnidan turdi. Ammo boshi aylangani sabab yiqilib tushay dedi. Keyin esa devorni ushlab o'rnidan turdi va unga suyanib xonadan chiqdi. Tashqarida Sara va Mira gaplashib o'tirishardi. Ular Keytni ko'rib tezda uni oldiga yugurib kelishdi.

-Nega turding?-dedi Sara undan xavotirlanib- Jaroxating ochilib ketsa nima qilasan, sen dam olishing kerak-deb unga yordam bermoqchi bo'lganida Key tuning yordamini rad etdi.

-Menga jin xam urmaydi-dedi o'rnidan turib- Men shunchaki uyimga ketishni xoxlayman.

-Buni iloji yo'qmi deyman-dedi Sara unga achinib- Chunki Mirani aytishicha faqatgina Oltin qirollikdagi qirol buyrug'li bilan boshqa olamga portal ochsa bo'lar ekan.

-Bu yana qanaqa ertak-dedi Keyt ensasini qotirib.

-Men xam ishonmadim,toki uni ko'rmagunimgacha-deb ortidagi kelishgan yigitga ishora qildi.U bo'ydor kelishgan va chiroyli edi.Sariq soch,ko'zlari xam sariq rangda edi.Qirra burun vas al cho'ziqroq yuzli ushbu yigir xam bo'rilardan edi.

-Bu yigitni ismi Kolin-dedi Sara unga o'zgacha qarab.Keyt uni ko'rib qoshini ko'tarib qo'ydi.

-U bizni qutqardi,ular ko'proq ekan,u esa kerak paytda paydo bo'ldi-dedi Mira Keytni yoniga o'tirib-Og'rimayaptimi?-deb yaralariga ishora qildi.

-Bundan battari xam bo'lgan-deb kulib qo'ydi

-Menga xam kurashishni o'rgating-degan gapidan xayron qoldi

-O'ylab ko'ramiz-deb Kolinga tikildi-Xozir esa u bilan gaplashamiz-deb Kolinga yuzlandi.

-Salom xonimlar-dedi Kolin odob bilan

-U barchamizni taniydi,salom Kolin-deb Sara kulib qo'ydi.Kolin xam unga javoban kulib qo'ydi.

-Salom-dedi Keyt uni ko'zlariga o'tkir tikilib-qarashlaringiz bo'rini eslatib yuborar ekan-dedi Saraga qarab

-Sizniki esa menimcha,ikkilanib turibman-dedi o'ylanib-Yoki burgut,yoki lochin.

-Xushomatmi?-dedi sovuq oxangda.

-Istasangiz shunday tushuning-dedi Kolin Saraga yuzlanib-Birodarlar azosi sizlar bilan nima qilayapti?

-Kimlar?-deb tushunmadi Sara

-Birodarlar-deb Keytga ishora qildi-Uning kiyimidagi belgidan Lochinko'zligini bilib olsak bo'ladi.Qo'lidagi pichoqlar xam ulardan biri ekanligini isbotlaydi.

-Bizni olamda bunday kiyingan odamlarni-deb Keyt tushuntira boshladi-Assasinlar deyishadi,sizlarni tilde aytganda esa og'alar.

-Nima demoqchisiz?-dedi Kolib qiziqib.

-Paralel olamlar xaqida bilasizmi?-dedi Keyt o'tirib olib-Biz o'sha olamdanmiz.

-Bo'lishi mumkin emas-dedi Kolin ko'zlariga ishonmay-U olamga faqat sehrigar yo'l ocha oladi.

-Biz xam shunday o'ylagandik-dedi Sara.

-Bizga bu yerdagi birodarlar xaqida aytib beraqol-dedi Keyt unga tikilib-Qiziqtirib qo'yding

-Yaxshi-deb Kolin xam o'tirib olib gapira boshladi-Qadimda vampire qirolliklar tarixida bir afsonaviy jamoa bo'lgan.Ularni birodarlar deb nomlashgan.Ularning kimligini xech kim bilmagan.Ular xar kecha paydo bo'lishardi va o'zlaridan keyin jasadlar tog'ini qoldirishardi.Jamoadam necha kishiligini xam bilib bo'lmasdi.Ularni eng mashhur quroli bu seni qo'lingdagi pichoqlar edi.Ular xozir qancha qolishganini xech kim bilmaydi.Lekin ular juda tezkor bo'lishgan.Xech qachon,do'stlarini tashlab ketishmagan.Shuning uchun ularni

birodarlar deb nomlashgan.Sizlarda qanday?-
deb ularga yuzlandi.

-Bizda esa sal boshqacharoq-dedi Keyt,uning xikoyasini mag'zini chaqib-Qadimda,bir kishi Alamut qal'asini bosib olgan.Uning maqsadi esa Saljuqiylar davlatini yo'q qilish bo'lgan.Buning uchun esa u o'ta chaqqon va mohir qotillarni tarbiyalay boshlagan.Xash-xash bizda shunday nomlashgan ularni.Assasinlar,sovuqqon,tajribali qotillar.Xuddi soyadek ishlashgan,o'zlaridan keyin xech qanday iz qoldirishmagan.Xozir xam tashkilotlari bor-deb Keyt o'nidan turdi va uy tomon ketdi.

-Undan qandaydir boshqacha xid kelib turibdi-dedi Kolib uni ortidan qarab qolib.

-Aniqroq gapir?-dedi Sara uni yelkasiga qo'lini qo'yib.

-Undan vampirni isi kelib turibdi-deb anig'ini gapirdi-Ko'zlari xam qandaydir boshqacha.U sizlarni olamingizdan bo'lishi mumkin,lekin isi boshqacha.

-Buni vaqt ko'rsatadi-deb Sara uni ortidan ketib bordi. Kirib borsa, Keyt kiyinib bo'lgandi. Ketishga tayyor edi.

-Qayoqqa?-dedi Sara uni ko'rib.

-Ortga qaytmoqchiman, xali xam bu yerni tush deb o'ylayapman-deb tashqariga chiqdi Keyt. Sara xam unga ergashdi. U endi kiyimlarini o'zgartirib olgandi.

-Qanday qilib qaytishni bilasanmi?-dedi Kolinni yonida to'xtab.

-Sehrgar bor deyishdi-dedi qurollarini tekshirib- Uni qidirib topaman.

-Unda senga yordam kerak bo'ladi-dedi Kolib uni jasurligidan xayratda qolib-U sehrgar vampirlarning oltin qirolligida. Uni qidirib topishing uchun esa senga odamlar kerak.

-Men sen bilanman-dedi Sara uni yuklaridan birin ko'tarib-Doimo birga bo'lamiz.

-Men xam sizlar bilanman-dedi Mira ularni yoniga tushib olib

-Aytib qo'yay yo'qolib qolsang,qidirib o'tirmayman-dedi Keyt uni ko'zlariga tikilib-O'quvchim bo'lmoqchimiding,yaxshi.Ammo bilib qo'y,ayab o'tirmayman-dedi ko'zlarini uzmasdan.

-Men tayyorman-dedi Mira qatilylik bilan

-Men xam sizlar bilan boraman-dedi Kolin qilichini qo'lga olib-Seni ko'rishsa shovshuv ko'tarib yuborasan.Keyin qirolliklarni men yaxshi bilaman-deb Kolin yo'l boshlab ketdi.Keyt esa xech narsa demay unga ergashdi.Lekin ich-ichida nimadir u nimanidir yashirayotganini bilib turardi.Ular ancha yurishdi.Kech tushganida esa o'rmonda to'xtashdi.Kolin navbatchilik qiladigan bo'ldi.Ular chodirlarni tikib bo'lishdi.Mira esa qilichni ko'tarib olib mashq qila boshladi.

-eng yaxshi mashq,kurashish-dedi Keyt qilichini olib uni qarshisiga turib-Qani xujum qil

-Yaxshi-deb Mira unga tashlandi.Lekin Keyt kiprik xam qoqmadi va unga qarab kelayotgan

qilichni qilichini bilan urib Miraning qo'ldan tushirib yubordi.

-Juda yomon-dedi Keyt uning qilichini olib-Uni maxkam ushla,u seni bir bo'laging unutmadeb endi Keytning o'zi xujum qila boshladi.U shunday xujum qilardiki,xuddi o'yin o'ynayotgandek.Mira uning zarbalarini qiynalib qaytarar edi.5 daqiqalik shunday jangdan so'ng,Saraning aralashuvi bilan jang to'xtadi.

-Endi esa men bilan shug'ullanasan-dedi Sara bokschilardek turib olib-U senga qurollar bilan qanday muomala qilishni o'rgatdi.Endi esa meni galim,mushtlashishni o'rgataman-deb Sara unga bazi usullarni o'rgatdi.Kolin esa bu orada kattakon kiyikni tutib keldi.

-Xammamizga ko'plik qilmaydimi?-dedi Keyt go'shtini ko'pligini ko'rib.

-Bo'rilar qanchalik och bo'lishini bilmaysanda-deb kulib qo'ydi Kolin-Sara yordam ber-dedi Kolin uni go'shtini ajratib.Shunday qilib ular kechki ovqatga olovda pishgan kiyik go'shtini tanovvul qildilar.Kolin aytganichalik juda ko'p

ovqat yedi. Bir nechta odam to'ysa bo'ladigan ovqatni, bir o'tirishda paqqos tushirdi.

-Oshqozoningga xayronman-dedi Keyt go'shtdan tishlab.

-Men esa seni vampire deb adashganman chog'i-dedi Kolin. Shunday qilib ular ovqatlanishni tugatishdi. Ovqatlanib bo'lishgandan so'ng esa Kolin barchani ko'z o'nggida chiroyli bug'doyrang bo'riga aylandi. KO'rinishi juda chiroyli edi. U kelib Saraga erkalanib qo'ydi. Ketganidan so'ng esa Keyt uni gapga tutdi.

-Sara, sevib qolganda o'xshaysan-dedi kulib. Uning gapidan Saraning ikki yanog'l qizarib ketdi.

-Mira, sen xam mana shu opangga o'xshagan bo'lma-deb Keytni yelkasidan turtib qo'ydi. Aytgancha yarang qanday?-dedi Keytni qiynalmayotganini ko'rib

-Bog'ichlarni allaqachon olib tashlaganman-dedi chandiqni ko'rsatib-Yaralarim tez bitadi.

-Qoyilman-dedi Mira uni ko'rib.Ular tongni ottirishib yo'lga tushishdi.Yo'lda ketishayotganlarida esa qaroqchilarga duch kelishdi.

-Ey xudoyim-dedi Keyt osmonga qarab-Xech kimni o'ldirishga to'g'ri kelmasin.qaroqchilar ularga yaqinlashishdi.

-Salomlar-dedi ulardan biri-Qayerga ketayapsizlar?

-Shu yaqin qishloqda turadigan qarindoshlarimizni ko'rgani-deb Kolin javob berdi.Shu payt qizlarga shilqimlik qilayotgan qaroqchilardan birini Keyt yuziga shapaloq tushirdi.Qaroqchi quturib ketib endi qilichini olib Keytni boshiga urmoqchi bo'lganida Kolin uni qo'lidan tutib qoldi.Kolinni urmoqchi bo'lganini esa Sara boshiga urib xushsizlantirdi.Shu payt ulardan biri xushtak chalgan payt qaroqchilar chumoli kabi ko'payib ketdi.

-Menimcha boshlasam bo'ladi-dedi Keyt yopinchig'ini tashlab yuborib.Qaroqchilar

tashlana boshlashdi. Ammo Keyt, Kolin va Sara ularni barini qilichdan o'tkazishardi. Keyt qo'lidan jaroxatlandi. Shu payt qayerdandir bir yigit paydo bo'ldi. Uning qo'lidagi qilichda olov yonardi

-4 kishini shuncha kishi talasa-dedi qilichini ko'tarib-qani bu yerda adolat-deb ularga qarshi xujumga o'tdi. xamma uni faqat sochlarini ko'rgandi. Uning sochlari xuddi qor kabi oppoq edi.

-Mana vampire xam keldi-dedi Kolin nafasini rostlab olib. Uni yordamida ular bu jangdan omon chiqishdi. SHu payt qayerdandir bir kamon o'qi kelib Keytni o'ldirishiga oz qoldi. Keyt ortiga qaraganda unga qarab o'q uzayotgan bir qaroqchini ko'rdi. O'ylab o'tirmay qalpog'ini kiydi va u tomonga qarab yugurib ketdi.

-Bo'lishi mumkin emas-deb qoldi vampire yigit

-Salom Aleks-dedi Kolin uni qarshisiga turib olib. Keyt yo'lda unga tegishi kerak bo'lgan kamon o'qlarini qilichi bilan urib o'zini ximoya

qilardi.Uni bu xolda ko'rgan Mirada orzu paydo bo'ldi

-Men xuddi udek bo'laman-deb shu daqiqadan o'ziga so'z berdi.Keyt uni yoniga yetib bordi va uni aylanib o'tib bo'ynidan bug'ib oldi,Keyin esa bo'ynini keskin burdi.Suyakning singani va qaroqchi tinchib qoldi.

-Meni o'zing kechir-dedi Keyt va qilichini yelkasidagi qiniga solib qo'ydi.Boshqalarni yoniga kelganda esa ular notanish bilan gaplashib turishardi.

-Ishonmayman-dedi boyagi yigit

-Nimaga kim ishonmaydi?-dedi Keyt ularni yoniga yetib kelib.SHu payt boyagi notanish unga qaradi.U juda xam kelishgan va chiroyli edi.Tanasi xaddan tashqari oq va go'zal,ko'zlari esa qondek qizil edi.Bo'yi balandroq.

-Salom,men Keytman-dedi Keyt qo'lini cho'zib

-S...Salom-deb duduqlanib qoldi boyagi yigit-Men Aleksman,Kolinning eski do'sti.Aleksga

qarab Keyt nimanidir xis qilgandek bo'ldi. Ammo keyin o'zini qo'lga olib Miraga yuzlandi.

-Qarashingdan nimanidir so'ramoqchisan-dedi vishillab

-Buni qanday qildingiz, kamon o'qlari-deb boyagi vaziyatga ishora qildi.

-Mashqlar, tinimsiz mashq qilsang shunday bo'lasan-dedi va qo'lga kamon va bitta o'qidan oldi-Qara-deb osmondagi nimanidir mo'ljalga oldi va o'qni tortib qo'yib yubordi. 5 soniyadan so'ng esa bir mitti qush yerga qulab tushdi.

-Demak, men vampirman degin-dedi Aleks jilmayib.

-Bu gapni yana qancha qaytaraman-dedi Keyt va Aleksga o'girildi. U qizil plashda edi. Bu esa unga chiroy berib turardi.

-Men vampire emasman-deb xar bitta so'ziga urg'u berib o'tdi.

-Lekin juda xam o'xshaysan-dedi Aleks oppoq sochlarini ko'zidan olib.

-Kolin bilan qanday aloqangiz bor?-dedi Sara uni gaplarini eslab.Kolin va Aleks bir-birlariga qarab qo'yishdi.

-Uzun tarix-deb kulib qo'ydi Aleks.-Meni ko'proq seni tarixing qiziqtirayapti-deb Keytga yuzlandi.

-O'lishni istamasang-deb qo'lidagi pichoqni uni tomog'ini tagida ishga tushirdi-Mendan uzoqroq yur-deb vishillab aytdi.

-Bunday vaziyatlarga doimo tayyor turaman-deb Aleks pastga ishora qildi.Keyt o'sha tomonga qaradi.Uni qorniga kirishiga sal qolgan muzli xanjarni ko'rdi.

-VAmpirlarda qobiliyat bo'ladi-dedi Kolin Saraga termulib,Sara Miraga mushtlashishni sirlarini o'rgatayotgandi-Bazilarida albatta,Aleksni qobiliyati muz va olov-deb Keytga qarab qo'ydi.

-Aytishlaricha qotil ekansan-dedi Aleks pichoqni tushirib

-Juda senga mos-deb Kolin Sarani yoniga ketib qoldi.

-Nimaga shama qildi?-dedi Keyt Aleksni burishgan yuzini ko'rib.

-Vampirlar boqiy yashaydi-deb kulishga xarakat qildi-Shu boqiy xayot davomida meni qo'limdan ko'pchilik o'ldi.Qo'llarim qonga botgan-deb qo'llariga qaradi.Xuddi Keytnikidek qaltirar edi.Qayerdandir iroda topib Keyt Aleksni qo'llarini ushlab oldi va o'ziga qaratdi.

-Ammo bu qo'llar endi qutqarishi xam mumkin-deb Mirani oldiga qarab ketdi.Aleks esa xech narsa demay uni kuzatdi.Xayolida nimalarnidir o'ylardi.Keyin esa Kolinning baqirishidan yerga tushdi.

-Aleks,ketish kerak-deb baqirardi Kolin.Aleks esa o'ziga kelib qolganlarga yetib oldi.

-BU qanday xissiyot-deb o'ylardi-Menda qandaydir o'zgarish bor,ammo qanday xuddi kimdir xayotimga quyoshdek kirib keldi-deb o'ylab ketardi.Ular ancha yurishdi.

-Qirolliklar qancha-dedi Keyt,bu yerlarga qiziqib.

-2 ta mashhur vampirlar qirolligi bor-deb Aleks gapira boshladi-yana 2 ta bo'rilar qirolligi xam bor.

-Baxtimizga xozircha ularning munosabatlari juda xam yaxshi-deb qo'shib qo'ydi Kolin.Aleks esa unga qarab kulib qo'ydi.

-Aytganidek ularni aloqalari ancha yaxshi-deb davom etdi Aleks-Ammo yana 3 ta qirollik bor-deb Aleks jiddiy tortdi-Biz ularni "Gul" deb ataymiz.Ular xam odamlarga o'xshashadi.Ammo ular oddiy ovqat yeyishmaydi.Ularni ovqati bu odamlar-deb jaxldan yuzlari burishib ketdi-To'g'ri kelsa vampirlarni va bo'rilarini xam yeyaverishadi.

-Ularni xam o'z kuchlari bor-deb Kolin gapira boshladi-Ularni bellarida,yoki yelkalarida qanotga o'xshagan qurollari bo'ladi.Ular kagune deb atashadi.Xammasining kagunesi xar xil.

-Ularni vampirlardan bir farqi bor-deb Mira gapga aralashib ketdi-Ular boqiy xayot kechirishmaydi.Ular qarishadi,shunisi bilan vampirlardan ajratib turishimiz mumkin.

-G'alati-deb Keyt xammasini o'ylab keta boshladi. Shu payt qayerdandir kamon o'qi kelib Miraga tegay dedi. Agar o'qni Keyt ushlab qolmaganda, Mira o'lgan bo'lar edi.

-Agar adashmayotgan bo'lsam-deb Keyt atrofga qarab sanay boshladi-Bir, ikki, uch....15 ta, bizni o'rab olishgan.

-Adashmading-dedi Aleks qo'lga qilichini olib-Boshlaysizlarmi, yoki o'zimiz boshlaylikmi-dedi Aleks baqirib. Keyt va Aleks orqama-orqa turardi. Sara Mira bilan, Kolin esa ularni oldida turardi.

-BU yerda bir kunni jangsiz o'tkazish mumkinmi?-dedi Keyt qilichini maxkamroq ushlab

-Agar shaxarda bo'lsang xa, oltin qirollikkacha yana 2 kun yurish kerak-dedi Aleks atrofga qarab.

-Boshladik-dedi Keyt pichoqlaridan birini olib o'tlar orasiga otib. u otgan pichoq to'g'ri

kimnidir boshiga borib tegdi va uning yiqilganini ovozi eshitildi.

Shu payt qandaydir boshqacha pichoqlar Keytga qarab uchib keldi. Keyt ularni qilichi yordamida qaytarib yubordi.

-Bo'rini eslagandik qulog'ini ko'rindi-dedi Kolin tishlarini qayrab.

-Gullar-deb qo'ydi Aleks, o'tkir tishlarini ko'rsatib. Shu payt atrofdan ular bostirib kela boshlashdi. Aleks qilichida olov yoqib ularni qira boshladi. Keyt esa qarshisidan chiqqanini ayamay qirardi. Sara va Kolin Mirani ximoya qilardi. Keytni qarshisiga bir ayol chiqdi. U ko'rinishidan oddiy, beozor ayolga o'xshardi. Ammo unday emasdi. Unin yelkaridan uchli sakkizoyoqnikiga o'xshagan oyoqlar o'sib chiqdi. Ular 4 ta edi.

-Meni ismim Violetta-deb o'zini tanishtirdi-Men seni kechki ovqatga yeyman-deb unga xujumga o'tdi. Keyt uning kagunesidan amallab ximoyalarni.

-Mening ismim Keyt-deb o'zini tanishtirdi Keyt-
Men esa seni qoningni ichaman-deb unga
tashlandi.

-Buni xali ko'ramiz vampire-deb Violetta xam
unga tashlandi.Ularni janggi ikki afsonaviy
jangchini janggini eslatardi.Violetta unga
kagunelari bilan xujum qildi.Ammo Keyt
chaqqonlik qilib uning orqa tomoniga o'tib
oldi.Violetta qolgan ikkita kagunesi bilan
ximoyalandi.Ammo qilich juda xam o'tkir edi va
u kagunelarni chopib tashladi.Violetta quturib
ketdi.Keyt esa uni yuragiga qilichini sanchib
qo'ydi.

-BU yetarli emas-deb Violetta qilichni chiqarib
tashladi.Uning yarasi esa tezda bitib ketdi.Xuddi
vampirlarnikidek.

-Menimcha sal jiddiyroq bo'lish kerak-dedi Keyt
qalpog'ini kiyib.Endi u qo'lga ikkita kunayni olib
jangga shaylandi.Unga qarab otildi va
zarbalariga chap berib,daraxtdan foydalanib
salto qildi.Uning ustiga chiqib olib kunaylarni
bo'yniga sanchib qo'ydi.Ularni burab

borardi.Violetta esa quturardi.Keytni uloqtirib yuborib,uni ustiga o'zini tashladi.Keyt so'nggi soniyalarda yerda yotgan qilich bilan o'zini ximoya qilib qoldi.Qilichi bilan Violettaning boshini uzib tashladi.

-Gul degani shu bo'lsa,eng xavflisi qanday ekan-deb yerga yotib qoldi-

-Eng xavflisi shu edi-dedi unga yordamga kelgan Aleks-Sen Violettani o'ldiribsan,uning boshi uchun 5000 tangga mukofot belgilashgandi.

-Buni qara-dedi Aleksni qo'lidan ushlab o'rnidan turarkan.Ular bir joyga to'planishdi.

-Men xam bittasini o'ldirdim-dedi Mira xushchaqchaq oxangda

-O'ldirish yomon odat-dedi Keyt jiddiy tortib-Qilich o'ldirishi emas,ximoya qilishi kerak-deb atrofga quloq soldi.Shu payt o'zi kutgan narsa sodir bo'ldi.Ammo juda tez.Arbalet o'qi uchib kelib Mirani o'ldirishiga oz qoldi.Chunki uni Keyt to'sib qolgandi.

-Menimcha men o'ldim-dedi Keyt Mirani quchoqlab,birozdan so'ng esa yerga quladi.Mira shok xolatida edi.Aleks quturib ketdi va olovi bilan o'q kelgan tomonni kulini ko'kka sovurdi.Keyin esa tezda Keytga yordamga otildi.Barcha uning atrofida edi.mira esa to'xtamasdan yig'lardi.

-men...Men aybdorman-deb o'zini ayblardi.Shu payt uni Sara yelkalaridan ushlab uni o'ziga qaratdi.

-Menga qara,uni axvoli yaxshi,bu yerda seni aybing yo'q-deb uni tinchlantira boshladi

-Lekin meni deb shunday axvolga tushdi-deb yig'lardi

-Unda,kuchli bo'l-deb qo'liga qilichni tutqazdi-Shunday kuchli bo'ldinki,xammani ximoya qila oladigan bo'l-deb Sara uni quchib qo'ydi va Keytni oldiga qarab ketdi.Shu vaziyatdan boshlab Mira o'z oldiga kuchli bo'lish istagini qo'ydi.Sara yetib kelganda Kolin bilan Aleks unga qarab o'tirishardi.Orqa ko'kragida esa

arbalet o'qi sanchilib turardi. Keytni xushi o'zida edi.

-Nima gap?-dedi Kolinni chetroqqa olib o'tib.

-Axvoli yomon-yashirib o'tirmadi-O'q yuragining yoniga sanchilgan, o'qni chiqarib tashlashga qo'rqib turibmiz. O'lishi mumkin-deb unga shunday qaradiki, bu qarashda achinish bor edi. Sara xam tushunib turardi.

-Pichirlashish shart emas-dedi Keyt gapirishga kuch topib

-Keyt gapirma, kuch yo'qotasan-deb uning uchun qayg'urardi Aleks. Unga nimadir bo'lishidan qo'rqardi. Agar unga nimadir bo'lsa, xuddi bu uni deb sodir bo'lgandek.

-O'lishim mumkinligini bilaman-dedi baribir gapirib, lekin u xam Aleksga nisbatan o'zida nimanidir xis qilardi-Tinchgina o'qni chiqarib tashlaymiz. U bilan uxlay olmayman-deb kulib qo'ydi.

-Yuragingni yoniga sanchilganini bilasanmi?-deb Sarani jaxli chiqib ketdi-BU degani o'lasan degani.

-Mendek odamlarda yurak bo'lmaydi-dedi o'tmishini esga olib,shu payt qo'lini ustida boshqa qo'lni sezdi.

-Men xam boshida shunday o'ylaganman-dedi Aleks uni qo'llaridan ushlab-Lekin bizdeklar xali xayotida o'z o'rnini topmagan-deb shunday gapirdiki,KKey tuningovoziga shaydo bo'ldi.

-Mana buni tishlab ol-dedi Sara yumshoq rezinani Keytni og'ziga solib-Og'riydi-deb kamon o'qini ushlab turdi va ichida sanab uni chiqarib yubordi.O'q Keytni tanasini teshib chiqdi.Keyt esa og'riqdan baqirmasdi.

-Esingdami yoshligimizda men doimo urushib kelganimda sen yaralarimni davolarding-deb yoshliklarini esga olishdi.

-Keyin esa Emma oyimdan juda ko'p tanbexx eshitarding-derdi Sara bog'ich bilan Keytni yarasini bog'lar ekan.

-Va sen meni ximoya qilar eding-deb qo'shib qo'ydi Keyt-Mirani axvoli qanday?

-O'ziga keltirib qo'ydim-dedi Sara ishini yakunlab-Dam olishing kerak.

-ALbatta-dedi va o'rniga yotib oldi.Sara esa ishini bitirib tashqariga chiqdi va o'zini tashlab yuborishiga oz qoldi.

-O'zini uruntirib qo'yding-dedi Kolin uni ushlab qolib-Extiyot bo'lishing kerak.

-Uni axvoli qanday?-dedi Aleks yetib kelib,uni yonida Mira xam turardi.

-Dam olayapti-deb aytdi Sara-Kirishing mumkin,lekin urintirib qo'yma-deb ogoxlantirdi.Mira quvonchdan yettinchi osmonga chiqdi.Aleks Keytni yoniga kirib ketdi.

-Salom-dedi kirib borishi bilan.Keyt uni ko'rib yuziga tabassum yugurdi.

-Salom-dedi tabassum bilan.

-O'zingni yaxshi xis qilayapsanmi?-dedi uni yoniga o'tirib.

-Xa-deb turishga xarakat qildi.Buni ko'rib Aleks uni tezda to'xtatdi va joyidan turgizmadi.

-Sen xam qotil bo'lgan san deb eshitgandim-dedi Keyt oldingi suxbatlarni eslab-Tarixing qanday,menikini bilsang kerak.

-Albatta-dedi Aleks o'tirib olib-Men otamni qo'lida o'sganman.Onam yoshligimda o'lib ketgan.Keyin esa men bir kuni uydan qochib ketganman.O'shanda meni armiyaga olishgan va jang usullarini o'rgata boshlashgan.Men boshida qobiliyatim borligini bilmaganman.Ammo keyin,keyinchalik bu yuzga chiqdi.Men ko'pchilikni o'ldirdim-deb boshini egib oldi.Keyt esa unga achinganidan uni quchoqlab oldi.Aleksni ko'zidan yosh chiqib ketdi.U xam Keytni quchoqlab oldi.Birozdan keyin Aleks boshqalarni oldiga chiqdi.Keyt negadir oldinlari sezadigan og'riqni xozir sezmasdi.Oldinlari shunday jismoniy og'riqlarni sezganki,o'lishni istagan paytlari xam bo'lgan.Ammo xozir,barchasi g'alati.

-Menimcha shuncha jaroxat olganimdan bo'lsa kerak-deb o'yladi va uyquga ketdi.Aleks o'tirganlar orasida Mirani ko'rmasdi.

-Mira qayerda?-dedi uni axvoli bilan qiziqib.

-Mashq qilayapti-dedi katta go'sht bo'lagini yulib olgan Kolin-O'zini aybdor sanayapti.

-Kuchli bo'lishga intilayapti-deb qo'shib qo'ydi Sara.Aleks esa uni qidirib ketdi.Mirani o'rmon oldida topdi.

-Salom Mira-dedi Aleks unga yaqinlashib.Mira uni ko'rib sal yengil tortgandek bo'ldi.

-BU yerda nima qilayapsiz?-dedi Mira uni kechqurun ko'rgani uchun shubxalanib

-Ovga chiqdim-degan gapini eshitib Mirani peshonasidan ter chiqib ketdi.

-Men odam qonini ichmayaman-dedi uni qo'rqib ketganini ko'rib-Agar qanday qilib ov qilishni o'rganmoqchi bo'lsang,men bilan yur-deb o'rmon ichiga kirib ketdi.Mira ozgina qo'rqib turdida,keyin unga ergashdi.Miyasida kuchli bo'lish xaqidagi fikr edi.

-Birinchi qiladigan ishimiz iz olishni o'rganamiz-dedi va izlarga qarab turib qoldi-Mira ular haqida nima deysan?-deb uni savolga tutdi.

-Menimcha izidan qoplonga o'xshayapti,qadamlar orasidagi masofa qisqaroq,demak shoshilmagan-deb Aleksga qaradi.

-To'g'ri,endi esa uning ortidan boramiz-deb o'rmon ichiga kirib ketishdi.Ular ozgina yurishgandan so'ng daraxt ustida o'tirgan qoplonga duch kelishdi.

-Mana bizni mushukcha-dedi Aleks unga yaxshilab nazar solib-Xech qoplon go'shti yeganmisan-dedi qiziqib

-Yo'q-dedi Mira uni ko'rinishiga xayron qolib

-Unda yaqin orada tatib ko'rasan-deb Aleks qo'lga qilichini oldi va qoplonni mo'ljalga oldi.Chuqur-chuqur nafas olib uni otib yubordi.Qilich to'g'ri qoplonga tegdi va uni daraxtdan tushirib yubordi.

-Mana bizni nonushta-deb Aleks uni ko'tarib oldi.Ular qaytishdi.Ertasiga esa ular yana yo'lga o'tlanishdi.Mira yo'l bo'yi mashq qilib borardi.Faqat bu safar Aleks aytgandek chaqqon o'lishni mashq qilardi.Keyt esa xuddi avvalgidek,xech narsa bo'lmagandek yurardi.Xuddi uni jaroxati yo'qdek.Ular tushlik qilgani to'xtashdi.

-Yana qancha yo'l bor-dedi Sara go'shtni olovga qo'yayotgan Kolindan

-Taxminan,xozir juda tez yurayapmiz-dedi barchasini xisob kitob qilib-Yana yarim kun,kechqurun mamlakatda bo'lamiz.

-Xozir,uning chegaralaridamiz-deb gapga aralashdi Aleks-Poytaxtgacha yana bir kun,yarim kunimizni qo'shganimizda-deb qo'shib qo'ydi.

-Keyt qani?-dedi atrofga nazar solib-Mira xam yo'q.

-Menimcha ular mashq qilishayapti-dedi Aleks qilich ovozlari eshitib.Ulardan sal olisroqda

Keyt Mira bilan qilichbozlikni mashq qilayotgandi.

-Xarakatlaring yomonmas-dedi Keyt uning zarbasini qaytarib-Ammo chaqqonroq bo'lishga xarakat qil-deb tezlik bilan chap berib bo'yniga qilichini tirab oldi.

-Siz juda xam tezsiz-dedi nafas rostlab.

-Qancha kuchlilar bilan mashq qilsang,jangda shuncha yengil bo'ladi-deb uni jangga chorladi-Agar chaqqon bo'lsa olmasang,aqlliroq bo'l-deb xujumga o'tdi.Keyt bilan Mira mashq qilayotgan payt Kolin bilan Sara ovqatlanib o'tirishardi.

-Kolin-dedi Sara ovqatini yeb bo'lib-Aleks bilan qanday aloqangiz bor-deb qiziqib qoldi.Kolinni tomog'iga nimadir tiqilgandek bo'ldi.

-Biz yoshligimizdan birga o'sganmiz-dedi Aleks gapni o'zi boshlab-Uydan qochib ketgunimgacha u bilan juda ko'p o'yinlar o'ynaganman,yana voqealar ko'p-deb o'ylanib qoldi-Ammo ular qiziqarli emas-deyishi bilan Keyt va Mira mashg'ulotdan qaytishdi.Ular xam

tushlik qilishdi va yana yo'lga tushishdi.Yo'lda ketishar ekan Aleks gap ochib qoldi

-Kolin-deb uni chaqirdi-Ularning xujjatlari yo'q,nima qilamiz?-dedi savol berib.Kolin Aleksga biroz g'alati qarab turdida,keyin qulog'iga nimadir deb pichirladi.Keyt oldinda Mira bilan mashq qilib ketishardi.Sara esa xuddi murabbiydek xarakatlarni o'rgatardi.Ular bir shaharga kirib kelishdi.Shahar kattagina ekan.

-Bu shaharning nomi nima?-dedi Key tuning kattaligini ko'rib.Oddiy shahar bunchalik chiroyli bo'lsa,Poytaxt qanchalik bo'lishini ko'z oldiga keltira olmadi.Atrof juda xam go'zal edi.Ertaklardagidek uylar,ortlarida qolib ketgan tog'lar,musaffo osmon va shu shaharga mos odamlar.Bozorlarida savdo qaynardi.Keytni zavqlanishini ko'rib Sara xam Aleks xam zavqlanardi.

-Bu shaharning nomi Kent shahri-dedi Aleks yo'ldan ko'zini uzmay-Kennedy Kent degan odamning sharafiga qo'yilgan-deb odam so'ziga aloxida urg'u berdi.Barcha ozroq bozor

aylanishdi. Aleks va Kolinning mo'ljali shu shaharda tunab qolish edi. Ular tunab qolish uchun boshpana topishdi. Keyin esa ayollarning odati tutib qoldi. Bozor aylanamiz deb erkaklarni yetaklab ketishdi.

-Nima gap yigitlar?-dedi kiyim do'koni sotuvchisi-Ayollar bilan chiqibsizlarda-deb kulib qo'ydi.

-Eng axmoq erkak-deb Kolin xazil qilmoqchi bo'ldi-Ayoli bilan bozorga brogan erkak ekan-dedi aylanib chiqqan do'konlarini sanashda adashib ketib. Sara uni beliga niqtab qo'ydi. Aleks esa miyig'ida kulib qo'ydi.

-Bizni do'kon bozordagi eng yaxshisi-deb do'kon egasi do'konini maqtashga tushib ketdi-Xattoki oltin qirollik malikasi xam bu yerlarga kelib turadi-deb aloxida urg'u berib gapirdi.

-Vampirlardan qo'rqmaysizmi?-dedi Aleks uni odam ekanligiga shama qilib.

-Kechqurun bu yerni qirollik askarlari qo'riqlaydi-deb maqtangandek bo'ldi

do'kondor. Qizlar kiyimlar olishdi. Miraga xam tanlash imkoniyatini berishdi va uni xam malikalardek qilib qo'yishdi. Do'kondan chiqib ozroq yurishlari bilan Aleks joyida toshdek qotib qoldi. Kolin esa nima bo'layotganini sezgandi:

-Do'kondor aldamabdi-deb qo'ydi Kolin va Aleksni bu yerdan olib ketdi. Aleks nafratini jilovlay olmayotgandi. Negaligini esa Keyt birozdan so'ng payqadi. Ularning qarshisida foytunda Oltin qirollik malikasi o'tib ketayotgandi.

-Seni u bilan qanday aloqang bor?-deb o'ylanib qoldi Keyt. Mira esa ularni mexmonxonaga olib ketdi. Ular xonalariga joylashishdi va narsalarini kiyib ko'rishdi. Birozdan so'ng esa yigitlar xam kirib kelishdi. Aleksni ko'rinishidan nafratini boshqara olmayotgani xaligacha ko'rinib turardi. Kolin esa uni ortida turardi. Agar Aleks qaltis xarakat qiladigan bo'lsa, Kolin uni to'xtatishga shay edi. Aleks xonasiga kirib ketdi va o'zini bosishga urindi. Keyt esa sabri qolmay

uni ortidan kirib ketdi.Xattoki Kolin xam to'xtata olmadi.

-Kolin-deb o'girilgan Aleks xayratdan og'zi ochilib qoldi-Sen bu yerda nima qilayapsan?

-Aslida sendan so'rashim kerak-deb borib ko'zlariga tikildi-Senga nima bo'layapti?-deyishi bilan Aleks ko'zlarini olib qocha boshladi-U bilan orangizda qanday aloqa bor?-deb surishtira boshladi.

-Kimni aytayapsan?-deb o'zini bilmaganlikka oldi Aleks

-Uni,kimni aytayotganimni bilasan-deb bozordagi xolatga shama qildi.Aleks boshini changallab o'tirib oldi.Keyt esa o'zi bilmagan xolda uni quchoqlab oldi.

-Gapir,yengil tortasan-deb unga shunday qaradiki,Aleks uning mehri taftidan erib ketdi.

-Men uni sevganman-degan gapni eshitib Keytni kapalagi uchib ketdi-Ancha yillar avval,men uni chin dildan sevardim.Keyinchalik esa bir narsaga guvoh bo'lib qoldim.Uning

xavshiyiligiga-deb shunday gapirdiki,ko'zlari qizarib ketdi-U xar xaftada bir kuni,qon to'la vannada cho'milar edi.Qon xam oddiy qon emasdi.Yosh bolalar,go'daklarni qoni edi-deb stulni tepib yubordi-Men oddiy vampirga emas,xaqiqiy vaxshiy maxluqqa turmushga chiqayotgan edim.Keyin esa qochib ketdim.O'shandan keyin o'zimga sevmayman deb so'z berdim.Ammo meningcha so'zimda tura olmadim-deb Keyt unga qanday qaragan bo'lsa,Aleks xam shunday qaradi.Ular suxbatlashayotgan payt Sara bilan Kolin xam aynan shu gaplarni gaplashishayotgandi.Tun tushdi,barcha uyquda.Aleksdan tashqari albatta.Kolin bo'ri tabiati bo'lgani sabab tosh qotib uxlardi.Mira esa Keyt bilan yotardi.Aleks esa qilichini aylantirib o'tirardi.

Ancha yillar avval

-Shahzoda Aleks-dedi malika Yelena o'rtaga tushib-Balki aylanib kelarmiz-deb qosh qoqib qo'ydi.

-Aleks yanami?-deb ensasini qotirdi Kolin-Sevgi muxabbat,ishqilib men shunday dardga muhtalo bo'lmay-deb osmonga qarab baqirdi.

-O'zing xam bilmay qolasan-deb Aleks kulib Yelena bilan ketib qoldi.

Xozirgi vaqt

-Yana sen Yelena-deb vishilladi Aleks qilichiga termulib-Keyt,kimsan o'zi-deb ochiq eshikdan Keytga qarab o'tirardi.tong otdi,barcha nonushta qilib olib,yana yo'lga otlanishdi.Poytaxt yo'lida ularni bir qancha askarlar to'xtatishdi.Ammo Aleks ularga bir qog'ozni ko'rsatishi bilan askarlar yana yo'llarida davom etishardi.Keyt,Sara va Mira poytaxtni ko'rib og'izlari ochilib qoldi.Bu yerni Oltin qirollik deyishlariga asosiy sabab bu poytaxtni qurishda juda ko'p oltin ishlatilganligi ekan.

-Va nixoyat-deb esnab qo'ydi Kolin-Uyquga to'ymagandim-deb yuzini qashib qo'ydi.

-Xali uxlay olmaysanmi deb qo'rqaman-deb qo'ydi Aleks-Kechqurun bazm bo'ladi,kun va tun tenglashgan kunni nishonlashadi.

-Biz taklif etilmaganmiz?-dedi Keyt bazm degan so'zni eshitib

-taklif etilganmiz-deb Aleks ko'z qisib qo'ydi.Keyt esa Aleksni o'z rejasi borligini bilib oldi.Shunday qilib ular mexmonxonaga joylashishdi.yigitlar qizlarni juda xam yaxshi mexmonxonada qoldirib,o'zlari qayergadir g'oyib bo'lib qolishdi.Kechga yaqin 3 ta quti keldi.Xar birida qizlarning ismlari yozilgandi.Ichini ochib ko'rishganda esa qizlarning kapalagi uchib ketdi.

-“Salom aziz mexmon,men Nilfgard shahzodasi shahzoda Aleks Jeyms,sizni Keyt Millerni bazmga men bilan birga borishga taklif qilaman”-deb yozilgandi.Saraniki xam shunga yaqin edi.

-“Men Wolfgard qirolligi shahzodasi shahzoda Kolin sizni Sara Millerni men bilan bazmga borishga taklif qilaman”-deb

yozilgandi.Miraning taklifnomasi esa xam Aleksni,xam Kolinning nomidan yozilgandi.Ular quti ichidagi kiyimlarni ko'rib lol qolishdi.Saraning kiyimi oq va qora rangda bo'lib,juda xam bejirim ishlangandi.Qadimgi ballarda mashhur grafinyalar kiyadigan kiyim edi.

Aleks va Kolin bazm boshlanishiga oz qolganda qizlarni kutishardi.Aleks xam Kolin xam juda asabiy edi.

-Qizlarni kiyinishiga qancha ketadi o'zi-deb Aleksni asabiylashib baqirib yuborishiga oz qoldi.

-Men bu paytda 10 marta kiyim almashtirishga ulgurgan bo'lardim-deb Kolin xam asabiylasha boshladi.Ularning ikkisi xam juda xam chiroyli bo'lgan kostyum-shimlarda edilar.Xaqiqiy shahzodalar.Yelenaning foytuni kelib to'xtadi va Aleksni ko'rib yam yashil ko'zlari quvonchdan porlab ketdi.Aleksni esa ko'zlari qizarib ketdi.Kolin uni yelkasidan turtib qo'ydi

-O'zingni boshqar-deb pichirlab qo'ydi.Aleks esa o'zini zo'rg'a ushlab turardi.Yelena juda xam ochiqroq kiyingandi.

-salom shahzoda Aleks-deb nozlanib gapirdi Yelena-Shahzoda Kolin-deb unga xam jilmayib qo'ydi.

-Salom-deb Aleks shunday gapirdiki,uni gapi jaxl bilan aytildimi,yoki mehr bilan payqab bo'lmasdi.

-Men bilan bazmga borishga qaror qildingizmi?-deb g'oliblardek jilmaydi.Ammo uning quvonchi uzoqqa cho'zilmadi.

-Aleks ular kelishdi-deb Kolin jilmayib foytun tomon yurib ketdi.

-Sal adashdingiz,malika Yelena-deb Aleks xam jilmaydi va foytun tomon,Kolinning ketidan ketdi.Foytunning eshigi ochildi va birinchi bo'lib Mira tushdi.Yelena ularni kuzatib turardi.Mirani ko'rib kulib yuboray dedi.Ammo Mira juda xam chiroyli kiyingan va xaqiqiy malikalarga o'xshab qolgandi.Keyin esa Sara tushdi.Oq-qora uzun

chiroyli kiyimda. Sochlarini xam shunga mos qilib turmaklab yoyib olgan va qora lab bo'yog'li surib olgandi. Atrini esa gapirmasa xam bo'ladi. Yelena uni ko'rib tom manoda xayron qoldi. Bir tomondan jaxli xam chiqdi. Keyin esa navbat Keytga keldi. U qi-qizil kiyimda edi. Qizil lab bo'yog'li va chiroyli turmaklangan sochlar. Sochlarini uchlarini oq rangga bo'yagandi. Kiyim uni juda xam chiroyli qilib ko'rsatardi. Aleks unga qo'l cho'zdi va kulib qo'ydi.

-Malika Keyt-deb kulib qo'ydi.

-Shahzoda Aleks-deb Keyt shahzoda so'ziga aloxida urg'u berdi va kulib qo'yib qo'lini qaytarmadi. Ular bir joyda bazm zaliga kirib borishdi. Yelena xam boshida Keytni vampire deb o'yladi. Undan vampirlardan keladigan xid kelib turardi. Aleks Yelenaning oldida o'tib ketayotganda shunday kulib qo'ydiki, Yelena qo'lidagi gullarini g'ijimlab oldi. Keyt va Aleks o'ng tomonda, Kolin va Sara esa chap tomonda

ketishardi.O'rtalarida esa Mira opalarini qo'lidan ushlab olgandi.

-Mana bu yigitni ko'rayapsanmi?-deb Aleks Miraga gapirdi va ulardan sal uzoqroqdagi bir yigitga ishora qildi-U sendan ko'z uza olmay qoldi-deb kulib qo'ydi.

-Xayajonlanib ketayapman-deb Mira yig'lab yuboray dedi.

-Yaxshi narsalar xaqida o'yla-dedi Sara uni qulog'iga.Ular borib qirol va qirolichaga tazim qilishdi.Qirol va qirolicha taxtlarida yastanib o'tirishardi.Vampir bo'lganliklari uchun ular xam xuddi Aleks va Keytdek ko'rinishardi.Bazm zali juda xam ajoyib edi.Nomiga yarasha xamma yoqda oltin qalashib yotardi.Shiftida esa 3 ta ketma-ket bir xil xashamdor qandillar osilgan bo'lib,juda xam xashamdor qilib ko'rsatardi.Ularning to'grisida qirol va qirolicha o'tirishardi.

-Salomlarimiz qirol Edmund-deb Aleks bosh egdi,Keyt xam unga qo'shildi-Qirolicha Anna-deb nomiga bosh egib qo'ydi.

-Aleks sizni anchadan beri bazmlarda ko'rmagandim-deb qirol gap boshladi-Sheriklaringizni tanishtirmaysizmi?-ularga yuzlandi.

-Qadir donim shahzoda Kolinni xammangiz taniysizlar-deb tanishtirishni boshlab yubordi-Uning sherigi esa bo'lajak malika Sara Miller-degan familiyani eshitishi bilan qirolicha xushyor tortdi,Sara nomiga egilib qo'ydi-Meni sherigim esa Albatta,bo'lajak malika Keyt Miller-deb uni xam tanishtirdi.Keyt tasm qilayotgan payt Aleksni oyog'ini bosib oldi.

-Bu esa bizni erkatoiy singlimiz malika Mira-deb uni xam tanishtirishdi.Anna Keytdan ko'zlarini uzmasdi.Keyt ketayotganda xam undan ko'zini uzmasdi.

-Bu yana nimasi-dedi Keyt Aleksni gaplaridan keyin.

-Barchasini stol atrofida tushuntirib beraman-deb Aleks boshqa gapirmadi.

-endi men xam malikaman-deb kulib qo'ydi Mira.

-Sen juda xam chiroyli malikasan-deb barcha uni erkalab qo'ydi.Stol atrofiga o'tirishdi.

-Aleks-deb Keyt sekin gapira boshladi-Nega qirolicha Anna mendan ko'zini uzmayapti?-deb yana unga qarab qo'ydi.

-Menimcha senga qiziqib qolgan-deb Aleks xam taxminini aytdi.Sara Kolin bilan xuddi er-xotinlardek o'tirardi.Ovqatlar tortildi.Keyt va Sara ozroq tanovvul qilishdi.Mira va Kolin esa sal keyinroq yeyishni istab qolishdi.

-Xozir qadimiy raqs bo'ladi-dedi Aleks ularni ogoxlantirib-Raqsga tushishni bilasizlarmi?

-Men bilaman-dedi Sara o'ylab o'tirmay-Senchi?-deb Keytga yuzlandi.

-O'tmishdagi ishmni xisobga oladigan bo'lsak albatta-deb qo'ydi-Raqsga tushishga to'g'ri keldigan paytlar xam bo'lgan.

-Naxotki-deb xayron qoldi Sara.

-Kanadadagi deputatni o'ldirilishini eslaysanmi?-dedi Keyt o'tmishni eslab

-Uni xam sen o'ldirganmisan?-deb o'ylanib qoldi Sara.

-Yo'q,men u yerda bilvosita qatnashganman-deb Keyt vinodan xo'pladi-U o'ldirilgan binoning qarshisida bazm bo'layotgandi,agar eslasang.

-Xa,esimda mexmonlar ro'yxatini ko'rib chiqqanman.

-O'sha bazmda raqsga tushganman-deb kulib qo'ydi Keyt.

-Yaxshi-deb qo'ydi Sara-Seni u yerga qanday qilib kirganligingni so'ramasam xam bo'ladi.

-O'zing bilasan-deb qo'ydi Keyt.Birozdan so'ng xammani bal zaliga taklif qilishdi.Yelena Aleksni kutardi.Ammo Aleks yana uni yonidan Keyt bilan o'tib ketdi.Yelenaning g'azabi qaynay boshladi.Raqsnı qırol va qırolıcha boshlab berishdi.Keyin esa qolganlar xam qo'shilishdi.Sara bilan Kolin,Keyt bilan Aleks

raqsga tushishardi.Mira esa ularni bir chetda kuzatib o'tirardi.Uni yoniga bir yigit kelib turdi.

-O'tirsam maylimi?-dedi muloyimlik bilan

-Albatta-deb Mira u tomonga xatto qaramadi xam.

-Meni ismim Viktor-deb u o'zini tanitdi.Mira u tomonga qarab boya unga tikilib turgan yigitni ko'rdi.Sariq ko'z,sariq soch va chiroyli yuz.Xushbo'y xid va chiroyli tabassum.Bo'yi xam deyarli Miranikidek.

-Men Miraman-deb Mira xam o'zini tanitdi.

-Raqsga taklif qilsam nima deysiz?-dedi o'rnidan turib.

-Rad etaman-dedi Mira ikkilanmay.

-nega?-deb Viktor qo'lini qaytarmay sababiga qiziqdi.

-Raqsga tushishni bilmayman-deb tortinibroq aytdi Mira.

-Bir gap aytaymi?-dedi Viktor sekingina,Mira bosh qimirlatib qo'ydi-Men xam raqs tushishni

bilmayman, ammo ularga qarab o'rganib olamiz-deb unga kulib qo'ydi. Mira esa rozi bo'ldi. Ular xam raqs tusha boshladi.

-Mira Viktor bilan topishib olgan ko'rinadi-dedi Aleks kulib qo'yib.

-Men Miradan xavotirlanayapman-dedi Keyt yashirmay.

-Xavotirlanma-dedi Aleks uni tinchlantirib-Viktor eng aqlli va kuchli, eng muximi o'zini nazorat qila oladi-deb uni tinchlantirdi. Raqsning birinchi qismi tugadi. endi sheriklar almashadigan joyiga kelishdi. Yelena Aleks bilan tushmoqchi bo'ldi, ammo Aleks Sarani raqsga taklif qildi. Kolin esa Keytni. Viktor bilan Mira esa ayrilishmadi. Yelenani g'azabi qaynardi. U endi o'z rejasini amalga oshirmoqchi bo'ldi. O'zi ishongan 4 ta vampirni chaqirib ularga buyruqlarini berdi

-Men seni oldinlari ko'rmagan ekanman-dedi Viktor

-Xa, chunki ko'rinmas edim-deb qo'ydi Mira-Sen xam poytaxtdan tashqariga chiqmagansan to'g'rimi?-deb kulib qo'ydi.

-Shu tabiatingni yoqtirib qoldim-dedi Viktor kulib-Kimdir savol bersa, doimo javobing tayyor.

-Sen xam qolishmaysan-deb kulib qo'ydi Mira. Aleks Sara bilan suxbatlashardi va suxbati davomida chiroyli raqsga xam tushishardi. Undan Keyt xaqida so'rab, yaxshiroq bilib oldi. Kolin esa Sara xaqida bilib oldi. Barcha, tarqaladigan payt kelganda Aleks bilan Kolinni qirol chaqirib qoldi. Ularga bu xabarni ikki xizmatkor vampire olib keldi. Qizlar esa foytunga qarab ketishdi. Endi yetib kelishganda esa xizmatkorlardan biri qirol Keytni xam chaqirayotganini aytib qoldi. Sara xam bormoqchi bo'ldi, ammo xizmatkor faqat Keyt xonimni chaqirayapti deb turib oldi.

-Xozir-deb Keyt xizmatkorni jo'natib yubordi. Keyin esa foytundan bildirmasdan kunayni oldi.

-Tezda qaytaman-deb ichkariga kirib ketdi.Xizmatkorni ortidan ketdi.Xizmatkor uni saroyning xilvat joyiga olib keldi

-Qayerga keldik?-dedi Keyt kunayni tayyorlab.

-Qabringga-deb xizmatkor qo'liga pichoq olib unga tashlandi.Keyt buni kutib turgandi va pichog'ini qaytarib uni o'ziga suqib qo'ydi.Keyin esa kunay bilan bo'ynini kesib yubordi.Shu payt yana ikkitasi tashlanib qoldi.Keyt chaqqonlik bilan ularga chap berib qo'lidagi pichoq va kunay bilan ularni bo'g'izlab yubordi.Ulardan uzoqroqda yana biri turardi.faqat u xuddi Keytga o'xshab assasinlardek kiyinib olgandi.

-Birodarlardanmisan,yoki shunchaki ularga taqlid qilayapsanmi?-dedi pichoqni unga o'qtab.u xech narsa demay kamondan Keytga qarab o'q uzdi.Keyt esa shunchaki bir tomonga qadam bosib o'qqa chap berdi.Tashlanganda uni zarbasiga chap berdi va qo'lidan kamonini tortib oldi.Shu payt kiyimini ortidagi rasmga ko'zi tushdi.Xuddi o'sha burgutni rasmi.Qotil 2-kamonidan yana bir bor o'q uzdi.Ammo Keyt

o'qni ushlab qoldi va tezlikda qayrilib o'sha o'q bilan qotilni boshini mo'ljalga olib o'q uzdi.O'q uni boshini teshib o'tdi va qon daryo bo'lib oqa boshladi.Shu payt Kolin va Aleks paydo bo'lishdi.Ular bilan soqchilar xam.

-Bu yerda nimalar bo'ldi?-dedi Aleks Keytni tekshirib.

-Kimdir meni yomon ko'rib qolibdi-dedi Keyt qo'lidagi kunayni yashirib.Aleks esa uni tortib oldi va jasadlardan biriga qadab qo'ydi.

-Kimligini topamiz-dedi Kolin.Qirol va qirolicha xam yetib kelishdi.Atrofdagi xolatni ko'rib xayron qolishdi.

-Malika Keyt axvolingiz yaxshimi?-deb xavotirlandi Anna

-Yaxshi-deb boshini qimirlatib qo'ydi Keyt-Endi bularni kim yollagan bo'lsa,o'shani o'ldiraman-deb vishillab qo'ydi.

-Ayollar xavfli bo'lishadi deb to'g'ri aytishadi-deb kulib qo'ydi Edmund.

-Qirol Edmund xamma narsani xazilga burib yuborish yaxshi odat albatta-deb uni oyog'ini bosib oldi-Ammo sal jiddiyroq xam bo'lish kerak.

-Albatta-deb tezda jiddiy qiyofaga o'tib oldi-Bularni kim yollagan bo'lsa o'shani tezda topamiz.

-Bilasizlarmi meni bir tanishim bor-dedi Keyt o'ylab o'tirmay-Uni "Qotil" deyishardi,birodarlardan deb eshitganman

-Bo'lishi mumkin emas-deb ko'zlariga ishonmadi Anna-Ular anchadan beri ko'rinishmasdi.

-U xaqiqiy a'zomi,yo'qmi bilmayman-dedi Keyt barchaga qarab chiqib-Lekin,ishni juda toza qiladi.Men uni merganligini ko'rganman

-Keyt ishonching komilmi?-deb uni qaytarishga xarakat qila boshladi Sara-Bu o'ta xavfli

-U bu ishni eplaydi,unga jin xam urmaydi-dedi foytungaga qarab yo'l olarkan.

-Men buni aytmadim-dedi Sara uni yo'lini to'sib-U bilan gaplashish va uni bu ishni qilishga ko'ndirish,o'ylab ko'r-deb achinib aytdi.

-Buni ko'ramiz-deb Keyt Sarani yon tomonidan o'tib ketdi.Foytunga chiqib o'tirib oldi.Xayolida esa barchasini nimadan boshlashni o'ylardi.Aleks xam uni yoniga chiqib o'tirdi.

-Ishonching komilmi?-dedi unga yaxshilab qarab.

-Xech qachon bunchalik bo'lmagan-dedi Keyt jiddiy tusga kirib-Odam bir marta seni o'ldirishga urindimi,sen uni o'ldirmaguninggacha buni yana takrorlaydi.

-Menimcha seni bu yo'ldan qaytarish oson emas,o'zingni bos-dedi,uning yuzidagi ifodadan uni qo'rqib ketganini bilish mumkin edi.

-Men o'zimni bosganman-deb vishilladi.

-Unday emas menimcha-deb unga ko'zguni tutqazdi.Keyt ko'zguga qarab qotib qoldi.Uni ko'zlari qizil qiyofada va ko'zi atrofidagi tomirlari bo'rtib chiqqandi.Ular

mexmonxonagacha jim ketishdi.Keyin esa borib dam olishdi.Ertasiga Keyt mashq qilishni boshlab yubordi.Tungacha Mira bilan tinimsiz mashq qildi.Bu orada Mirani qanchalik kuchga to'lganini ko'rib oldi.Mira endi unga xaqiqiy raqibdek qarshilik qilardi.

-Viktor xaqida fikring qanday?-dedi Keyt qilichi bilan unga xujum qilib.Mira chap berib,xujumga o'tdi.

-Yomon yigit emas-dedi Keytni pastdan kelayotgan zarbasini qaytarib-Ammo yigitlarga ishonib bo'lmaydi.

-To'g'ri,men yigitlarga emas,sevgiga ishonib bo'lmaydi deb xisoblayman-deb Keyt chap berib tezlik bilan xujumga o'tdi.Miraning qo'lidagi qilichi tushib ketdi.

-Bugunga yetadi-deb qilichini tushirdi-Yana bir saboq,dushmaningga xech qachon orqa o'girma-deb uni ko'zlariga tikilib uzoqlashdi.Tun cho'kkanda esa Keyt kiyimlarini kiyib tashqariga chiqib ketdi.Xech kimga bildirmay,saroygacha bordi.Saroyga kirishga xam

qiynalmadi. Soqchilar ancha sergak, ammo Keytni bildirmasdan qadam tashlashlarini uncha-muncha vampire xam payqay olmasdi. Yo'lakda ketib borar ekan, ikki yigitning gapini eshitib qoldi.

-Biz eng yaxshi jangchini yuborgan edik-deb kimdir yig'lardi-Ammo u o'ylaganimizdan xam kuchliroq ekan.

-Men uni qanday jang qilganini ko'rdim-dedi biri yig'lam sirab-iltimos, malika Yelena raxm qiling-degan ovozni eshitishi bilan Keyt uni kim ekanini payqadi.

-Men sizlarga agar bu ishni uddalay olmasangiz-deb Yelena jaxl bilan vishillashga tushdi-Mendan raxm shavqat kutmang degandim-deb baqirib yuboray dedi.

-Kimsan?-degan ovozni eshitib Keyt o'ng tomoniga qaradi. Ikki soqchi unga qarab nayza o'qtalib turishardi. Shu payt Yelena xam bu yerda kimdir borligini sezib ortidan yetib keldi. Keytni o'rab olishgandi.

-Menimcha u sherigi uchun kelgan-deb xiringlab aytdi Yelena-Sen o'ldirmoqchi bo'lgan odam bu yerda emas-dedi.Keyt uning gaplaridan xammasini uni bo'yniga ilmoqchiligini bilib oldi.Bundan esa g'azabi qaynab ketdi.Kutilmaganda oldidagi ikki askarga xujum qildi.Qo'lidagi yashirin pichoqlari bilan ularni boshini uzib yubordi.Yelena va uning askarlari esa qo'rqib qolishdi.

-Sen kimsan o'zi?-dedi ovozi titrab.

-Seni o'liming-dedi Keyt vishillab-Seni olib ketgani keldim-deyishi bilan uni ko'ksiga kamon o'qi kelib tegdi.Ammo negadir og'riqni xis qilmadi.Boshida xayron qoldi.

-Yelena qoch-deb baqirgan Annaning ovozini eshitdi.Yelena vampirligidan foydalanib qochib qoldi.Keyt esa joyidan qilt xam etmasdi.

-Demak sen ekansanda-dedi Anna kamonidan o'q uzishga tayyorlanib-Meni nomimni bulg'ashga urinayotgan.

-tushunmadim-dedi Keyt ortiga o'girilib.

-Birodarlardagi Burgut menman-dedi Anna yana bir bor o'q uzib.Bu o'qi Keytning yuragiga tegdi.Ammo Keyt negadir og'riqni sezmasdi.

-Qanday qilib?-dedi Anna xayron bo'lib.Keyt xech narsa xam demay ikkala o'qni xam sug'urib tashladi.

-Ay-deb qo'ydi o'qni sug'urayotganda.Devorga osilgan katta kamonni oldi va bitta o'qni unga joyladi.

-Bilasizmi yo'qmi-deb qochib ketayotgan Yelenani nishonga oldi-Men xaqiqatdan xam adashmayman-deb nishonga olib,kamon ipini yaxshilab tortdi va qo'yib yubordi.O'q uchib borib Yelenani boshiga tegdi.

-Kimsan o'zi?-dedi Anna bemalol oyoqda turgan Keytga qarab.

-Xech kim-deb Keyt shu zaxoti g'oyib bo'ldi-Agar kimligimni bilishni istasang,ertaga kechqurun markaziy bozordagi ko'priikka kel-dedi deraza oldida turib.Keyin esa derazadan sakrab g'oyib bo'ldi.Uyga yetib xam keldi.Aleks

doimgidek xali ovdan qaytmagandi. Joyiga borib yotib uxladi. Ammo ertalab turganda oynaga qarab baqirib yubordi.

-Nima bo'ldi?-dedi Sara ko'zlarini ishqalab. Xattoki Kolin xam uyg'ongandi.

-Kimdir men bilan xazillashdimi?-dedi Keyt sochlariga ishora qilib. Ular endi oq rangda edi. Xuddi qordek oppoq sochlar.

-Keyt sizga nimadir...-deb Mira gapira olmay qoldi. Sochlariz bunchalar chiroyli-deb yubordi xayratini yashira olmay.

-Menimcha esa juda xam yomon-dedi sochini oynada tomosha qilib. Aleks kelib barchasini eshitdi va kulib yuborishiga oz qoldi. Keytning tunggi sayri xaqida xech kim bilmasdi. Yana tun cho'kdi. Keyt kiyinib ko'chaga chiqib ketdi. Ertaroq borib yo'laklarga belgilarni yopishtirib chiqdi. Keyin esa ularni kuzata boshladi. Anna yopinchiqda keldi va barcha belgilarni topib bordi. U uygacha keldi.

-Bir o'zingiz kelasiz deb o'ylamagandim-dedi Keyt uni ortida chiqib.

-Men esa xali xam tirikligingga xayronman-dedi u xam ortiga o'girilib-Meni qayerga olib kelding?

-Xali yetib kelmadik-dedi bir uyga qarab yurib-Shu uyga kirishimiz kerak-deb ichkariga kirib ketdi.Ular ichkariga kirishgach katta zal o'rtasida turishardi.Shu payt Anna unga tashlanib qoldi.Keyt chap berib,qo'lidagi kichik arbalet bilan ANnaga qarata o'q uzdi.Anna osongina chap berdi.

-Tegmadi-dedi kulib

-Aksincha aniq tegdi-dedi Key tuning ortidagi arqonga ishora qilib.Arqon iplari asta-sekin uzilib borardi.Anna arqon nimaga ulanganiga qaradi.Tepaga qaragani katta qafas turardi.

-Voy lanati-deb qochib qolmoqchi bo'lganida qafas uni usiga tushdi.Qafas zanjirlardan yasalganga o'xshardi.Xuddi qush qafasidek ko'rinardi.

-Bu zaxira reja edi-dedi Keyt atrofga esankirab

-Nimanidir yo'qotdingmi?-dedi Anna qafas ichidan.

-Eshityapsizmi?-deb Keyt atrofga quloq soldi. Anna xam atrofga quloq soldi.

-Xech narsani eshitmayapman-dedi Anna qafas devoriga suyanib.

-Xamma gap aynan shunda-dedi Keyt tayyorlanib-Bu yerdagi vampirlar odatda g'imirlab turishardi-deyishi bilan syuriken(yapon nindzylari quroli,o'tkiq yulduzchalar) uning ko'zi yonidan uchib o'tdi.

-BUnday qurol faqat meni olamimda bo'lar edi-deb ikkinchi syurikenni ushlab oldi.

-Seni olamingda-deb Anna xayratini yashira olmadi-Sen....meni...

Endi Keytga qarab kunaylar uchib kela boshladi.Keyin esa yana atrof jim-jit bo'lib qoldi.Keyt atrofga quloq soldi va bitta syurikenni oldi

-Xansirayapsan-deb syurikenni o'ng tomonidagi qorong'l devorga qarab otdi.Syuriken uni burni yoniga sanchilgandi.Keyin esa ochiqchasiga jang boshlandi.Qora kiyimdagi qiz,xuddi Keytga o'xshab kiyingandi.Uning oldiga chiqib keldi va mushtlashuv boshlandi.Xuddi ikki mohir jang ustasi kurashayotganga o'xshardi.

-Menimcha Sara senga juda yaxshi ustozlik qilibdi-dedi Keyt kulib.Uning bu kulgusi uning ajoyib kurashayotganidan edi.

-Siz xam-deb yelkasidagi qilichlardan birin olib Keytga tashlandi.Keyt qo'lidagi pichoqlari sabab qutulib qoldi.Endi qilichbozlik boshlandi.Keyt qilich bilan uni tanasiga zarba berishga urindi.Ammo Mira oxirgi paytda zarbaga chap berishga ulgurib qoldi.Mira tezlik bilan Keytga zarba bera boshladi.Qilichlar bir-biriga tekkanda olov chiqardi.Keyt qilichini osmonga otib Miraga tashlandi.Xavoda uni tepib yiqitdi va tushib kelayotgan qilichini ilib oldi.Mira endi o'rnidan turmoqchi bo'lganida esa qilichini unga niqtab oldi.

-Meni xayron qoldirdingiz shahzoda Aleks-dedi
Keyt ortiga qarab qo'yib

-Siz xam-deb qirolicha Annaga ishora qilib.

-Sen esa Mira-dedi uni qo'lidan ushlab o'rnidan
turg'azar ekan-Juda xam kuchli bo'libsan-deb
maqtab qo'ydi.

-Ustozlari kuchli-deb Sara o'zini maqtab
qo'ydi.Xamma etiborini qirolicha Annaga
qaratdi.

-Men bilishni istayman-dedi Anna Keytga tikilib-
Bu sizmi malika Keyt.

-Xa,men-deb Keyt qo'rqmasdan qalpog'ini
yechdi.Uning oq sochlarini ko'rib Annani
ko'zlari katta-katta bo'lib ketdi.

-Bu xaqiqatan xam sensan-deb Anna yig'lab
yuboray dedi.

-Nimadir bo'ldimi?-dedi Keyt uni ko'z yoshlariga
etibor berib.

-Xech tarixingni eslaysanmi?-dedi uni ko'zlariga
tikilib-O'tmishingni,ota-onagni.

-yo'q-dedi mayus tortib-ular meni tashlab ketishgan-deyishi bilan Anna uni gapini bo'lib qo'ydi

-Ximoya qilishgan-dedi yig'lab yuborib-Seni katta xavfdan ximoya qilishgan.

-Kimsiz,siz kimsizki meni tushunasiz?-deb Keyt baqirib yuboray dedi.

-Seni oyingman-deb Anna zo'rg'a gapirdi.Keytni bo'g'ziga nimadir tiqilgandek bo'ldi.

-Bo'lishi mumkin emas-Aleksning shunday gapidan keyin Keyt xushidan ketdi.Keyt tushida qop-qorong'u xonada edi.Bu yerda nima qilayotganini esa o'zi bilmasdi.Deraza oldiga borganda esa o'z aksiga ko'zi tushdi.U qizil plashda edi.Sochlari esa qordek oppoq bo'lib,kattakon sumka ko'tarib olgandi,sochlari unchalik uzun emasdi.Uning bo'yi o'zinikidan xam baland edi.endi oynani ochganida ortida tovush eshitildi.

-Meni qaytarishga urinish befoyda-dedi Keyt o'zida-o'zi.

-Bu ishni qilishingga ishonching komilmi?-degan Annaning ovozi eshitildi.

-Oyi-deb Keyt asta u tomonga qaradi-Meni kim ekanligimni bilasiz,men uni yengishim kerak.

-Otang uchun yetarli ish qilding-deb Anna u tomonga qadam bosdi-Uyog'ini qilishing shart emas

-Uni faqat men to'xtata olaman-deb derazani ochdi va sakrab chiqib oldi-Eyznxaym o'ladi

-Keyt-deb Anna yugurib kela boshladi.

-Meni kechiring-deb Keyt oynadan sakrab qochib ketdi.Shu payt Keytni o'zi qorong'u xonada ko'zini ochdi.Uning ko'zini ochganini ko'rgan Aleks tezda uni yoniga yugurib keldi.

-Salom-deb uni tekshirishga tushdi-Axvoling joyidami,yaxshimisan,boshing aylanmayaptimi...-deb savolga ko'mib tashladi

-Men yaxshiman-deb Aleksning qo'llarini ushlab oldi-O'zing yaxshimisan.

-Xa,Sara bilan Kolin xozir qasrda.

-Mirachi?

-U hozir alamini mashqlardan olayapti,Viktor u bilan.

-Annachi,u qayerda?-deb o'rnidan turdi.

-Balki yotarsan-deb uni to'xtatishga xarakat qildi.Ammo Keyt uni eshitmasdi.Aleks uning qanchalik qaysarligini bilib,uni Annaning oldiga boshlab ketdi.Anna uni ko'rib ko'zlaridan yosh oqib ketdi.

-Salom-deb u bilan salomlashmoqchi bo'ldi,ammo Keyt tezda maqsadga o'tdi.

-Ayting,men bilishni xoxlayman-deb turib oldi.Anna esa uni kursiga o'tqazib,nimani aytish kerak bo'lsa xammasini aytishga tushdi.Mira,Sara va Kolin xam ularga qo'shilishdi.

-Sen,bunda ancha yillar avval iblislar va vampirlar o'rtasidagi urushda qatnashgansan-deyishi bilan Aleks xushtak chalib yubordi

-Bu urush payti men yosh bola edim-deb kulib qo'ydi-Bilishimcha o'sha urush barcha bizni dunyodagilarni birlashtirgan.

-Xa-deb xo'rsinib qo'yib davom etdi-Seni qizil malika deyishardi.Senda xam vampire,xam iblis qoni oqardi.Shuning uchun xam jaroxat sezmayсан.

-urush tugaganiga qancha bo'ldi?-deb xissizlarcha Keyt savol berdi.

-2 asr-deb javob oldi-Urush tugagan bo'lsa xam,uni boshlagan maxluq tirik edi.Uning ismi..- deyishi bilan

-Eyznxaym-deb Anna va Keyt birga aytishdi.Anna xayron qoldi,qolganlar xam

-Men tush ko'rgandim-deb tushini ayta boshladi-O'shanda men qizil plashda nimadir ko'tarib olib qasrdan qochayotgan edim.

-O'sha tunni eslabsanda-deb Annaning ko'zlari katta-katta ochilib ketdi-O'sha kecha sen qochib ketganding

-Eyznxaym o'ladi-deb tushidagi gapni qaytardi-
Keyin nima bo'lgan?

-Keyinchalik esa biz seni boshqa xolda topdik-
deb unga mayus boqdi-Sen vaqt girdobiga
tushib qolganding,yosh bolaga aylanib
qolganding.Qirollikda sen xaqingdagi gaplar tez
tarqaldi.Endi bizga gullar xavf solib
turgandi.Seni yashirishimizga to'g'ri keldi-deb
yig'lab yubordi-O'shanda men xayotimdagi
katta xatoni qilgandim-deb yig'lab yuboray
dedi.Keyt nima bo'lganini tushundi.

-Eyznxaym kim?-deb qiziqdi Sara,xattoki Keyt
xam uni ismini eslagani bilan u xaqida xech
narsani bilmasligini eslab qoldi

-Eyznxaym-deb Aleks gapira boshladi-Uni
sizlarni olamda Mundo deb atashadi.Sizlarni
olamni xam bosib olishga xarakat qilib
ko'rgan,ammo bo'lmagan.Iblislar qiroli,xaqiqiy
maxluq-deb gapini jaxl bilan tugatdi.

-Meni otam Edmundmi?-deb Keyt yana
xammaning etiborini o'ziga qaratdi-yo'q,u axir
vampire,menga otang uchun qo'lingdan

kelganini qilding degandiz-deb qadaxdan xo'plab oldi-U kim?-deganidan so'ng xammaning etibori Annaga qaratildi.

-Uning ismi-deyishi bilan xammaning ichi qizib ketdi-Uning ismi "Sparda"-deyishi bilan Kolinning ichayotgan qadaxi qo'lidan tushib ketdi.Aleks esa tom manoda qotib qolgan edi.Xonani jimlik bosdi.

-Bu xazilmi?-dedi Aleks yutinib-Sparda...-deb gapira olmadi

-Kim u?-dedi Keyt atrofdagilarning reaksiyalarini kuzatib-Sizlarni xarakatingizda uni ancha mashhur ekanligini bilib olish mumkin

-Mundo yerni bundan ancha yillar avval bosib olishga uringan,yaqinda qilgan ishi esa ikkinchi marta edi-deb Kolin gapira ketdi-Birinchi marta uni Sparda to'xtatib qolgan-deb yutunib oldi-Iblis,odamlar uchun kurashib ularni qutqarib qolgan iblis

-Uni "Qora Ritsar" deb nomlashgan-deb qo'rqib gapirardi.

-Xar bir iblisning o'z qilichi bo'ladi-deb davom ettirib qo'ydi Mira-Men shunday eshitganman.Shunday emasmi?-deb qo'ydi

-Unda meni qilichim qayerda?-dedi Keyt Annaga qarab

-Spardani yana 2 farzandi bor-deb Anna umuman ular kutmagan tomondan gap boshladi-Ularning ismi Dante va Vergiliy, seni qiliching esa biz seni topgan paytimiz yo'qolgandi.Mundo ketishidan avval bir gap aytgandi.

-“Men qaytaman-deb o'shiringan-O'shanda qon daryo bo'lib oqadi”-degandi deb qadaxdagi qondan simirib oldi.

-Uni yengish kerak-dedi Keyt o'rnidan turib-Kasallikka chalinmagan yaxshiku,shunday ekan men qilichimni topishim kerak.

-Senga faqat ukalaring yordam bera oladi-dedi Anna unga yo'l-yo'riq berib-Danteni top,u senga yordam berishi kerak

-U qayerda?-deb ortiga o'girildi-Men uni qayerdan topishim mumkin?

-U sizlarni olamda,London shaxrida "Maxluq yig'lashi mumkin" degan joyga bor

-g'alati nom?-dedi Kolin qayerligini eshitib.

-Unda olg'a-deb Keyt chiqayotgan quyoshga to'yib qarab oldi

1-fasl tugadi

Muallif:@Rameo_11